RESEARCH AND EDUCATION
Scientific Research Center

ISSN: 2181-3191

# INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/7

05 OCTOBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG

PKP | INDEX

Google Scholar

# “RESEARCH AND EDUCATION”

## Scientific Research Center

# “INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/7”

www.researchedu.uz

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, точик, қарақалпақ

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2022/ OCTOBER 05**

# SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

**Qodirova Nilufar Abdusattor qizi**
Namangan davlat universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi magistranti
nqodirova27@gmail.com

## ANNOTATSIYA

Bosh maqsadimiz insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bolishiga erishishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: individ, shaxs, individuallik, davlat, tarbiya, rivojlanish.

**Kirish.** Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak. «Individ» nima? Bola ma’lum yoshga qadar «individ» sanaladi. Individ (lotincha «individium» so‘zidan olingan boMib, «bo‘lininas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash

tizimining bosh subyekti va obyekti, taMim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta ‘riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va m a ‘naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon boMishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi ham da muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga avlanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiva kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o‘zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga otishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarning o‘rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson iitimoiv maviudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik. biologik mavjudot hamdir. Demak, lining rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va iitimoiv qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta ‘sir etadi. Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq boMsa, u jamiyat a ‘zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallavdi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday

qilib, rivojlanish va tarbiva o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va iitimoiv omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida iitimoiv hodisalarning ta’siri kuchli bo‘ladimi? Yoki tabiiv omillar yetakchi o‘rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta’siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday? Fanda biologik vo‘nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiivbiologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkonivatlar. taadir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta’limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D’yul, A.Kombe ham shaxs rivoilanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliv) omilga bog‘laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni iitimoiv omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerak, individ shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Tasavvur qiling, inson bolasi tug‘ilibtiki u o‘z oilasida insonlar orasida rivojlanmasa u inson bolib shakllana olmaydi va unda insoniy fazilatlar paydo bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. ~ Toshkent, 0 ‘zbekiston, 2000.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. — Toshkent, 0 ‘qituvchi, 1992. 3. Alisher Navoiy. Asarlar. 0 ‘n besh tomlik. 0 ‘n uchinchi jild. — T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san ‘at nashriyoti, 1966.

4. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma. — T., 0 ‘qituvchi, 1986.

5. Barkamol avlod orzusi /Tuzuvchilar: Qurbonov Sh, Ahliddinov R, Saidov V. — Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g ‘risida»gi Qonuni.

# CHINGIZ AYTMATOVNING “SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR“ ASARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QO‘LLANILISHI

**Sattarova Dildora Sunnatullo qizi**

GulDU Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasida qo‘llanilgan barqaror birikmalar keltirilib, birma-bir ma’no mazmuni yaratilgan. Bundan tashqari, barqaror birikmalarning mazmun-mohiyatini ochib berishda turli adabiyotshunos olimlarning tahlillaridan foydalanib tahlil qilingan .

**Kalit so‘zlar:** barqaror birikma , maqol , matal, ibora.

Xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgan maqol, matal, ibora, hikmatli so‘z kabi barqaror birikmalar badiiy asarning mazmun-mohiyatini, qahramonlar ichki dunyosini ochishda, asar tilining ta’sirchan bo‘lishida emotsionalligini oshirishda muhim vazifa bajaradigan vositadir. O‘zbek tilida barqaror birikmalarning o‘rni ancha keng.

Barqaror birikma ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan , nutq jarayoniga tayyor kiriluvchi til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan nutq jarayoniga tayyor kiriluvchi til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridir[1].

Badiiy asarda qahramonlarning xarakterini ochib berish, ularning qanday ruhiy holatda ekanligini tasvirlab berishda maqol va matallar asosiy o‘rin egallaydi .

Chingiz Aytmatov xalq donoligini ko‘rsatib beruvchi birliklar maqol va matallardan juda ko‘p o‘rinlarda ustalik bilan foydalangan. Shu o‘rinda maqol va matalni bir biridan farqlash lozim . Maqolda filr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lib

[1] A.Nurmanov , N.Mahmudov , A.Sabirov , Yusupova.Sh , Hozirgi o’zbek adabiy tili (Aksdemik litseyning 2-bosqich talabalari uchun darslik). T . “Sharq” , 2002 , 103-bet.

va ko‘chma ma’noni ifodalasa, matal esa tugal fikr ifodalamaydigan, hukum chiqarmaydigan o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Shuningdek, maqol grammatik jihatdan tugallangan fikrni ifodalab, gap tarzida shakillangan bo‘lsa, matal grammatik jihatdan to‘la shakillanmagan, fikrni tugal natijasini ko‘rsatmaydigan turg‘un birikmadir. Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasidagi paremalarni ko‘rib chiqib (Maqol – matal va aforizmlar paremalar deb ham ataladi ) tahlil qilamiz. Asarda ko‘plab maqol va matallarni uchratamiz.

Masalan :

- Bola boshdan, hunar yoshdan, yoshlikdan hunar o‘rganish kerakligi, bo‘laman degan bola bo‘laverishi lekin hunarni yoshlikdan o‘rganish kerakligi ma’nosi;
- Yomon yoldoshni yoldan ozdirar. Hamrohingiz yomon bo‘lsa sizni ham yo‘lingizdan adashtiradi . Xuddi “Yaxshi bilan yursang yetarsan murodingga yomon bilan yursang qolarsan uyatga” kabi ma’no.
- Kemaga tushganning joni bir. Yaxshi vaziyat bo‘ladimi yoki yomon , har qanday holatda ham bir xil yakun topishi, biror ishga aralashdimi uni oxirigacha yetkazish ma’nosi.
- Muddati kelmaguncha kasal tuzalmas. Vaqti yetib kelmaguncha biror natija bo‘lmaydi. Hamma narsani o‘z vaqti soati bor ma’no.
- Yaxshi it o‘ligini ko‘rsatmas (matal)

Endi ushbu asardagi turg‘un birikmalardan biri bo‘lgan iboralarni tahlil qilib chiqamiz.

Ibora – tuzulishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan nutq jarayonida yaratilmay nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik[2] .

Iboralar voqelikni obrazli tasvirlab berish, uni o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirish ta’sirchanlikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Asarda quydagi iboralarni uchratamiz :

[2] A.Hojiyev , Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati . T , “Fan” , 2002 , 124-bet.

1. Luvr o‘rdak qo‘nadigan joy topaolmay faryod chekar, chidolmayman, tuxumini tubsiz girdobga tushurib yuboraman, deb yuragi shuvullardi . (351-bet) yuragi shuvillamoq-qo‘rqmoq .

2. Uchaverib holdan toygan, majolsiz o‘rdak uya qurish uchun butun olamda biror parcha yer yo‘qligiga ishonch hosil qildi. (351-bet) holdan toymoq-charchamoq .

3. Ahyon-ahyonda kattalarga qarab qo‘yar, joni ichiga sig‘masdan o‘zini zo‘rg‘a tutib o‘tirar, xo‘mrayib o‘tirgan qariyani koyitmaslik uchun ha deb tipirchilayverishdan o‘zini tiyib o‘tirardi . (353-bet) joni ichiga sig‘masdan-xursand bo‘lib , toqatsizlanib .

4. Kirish hozir bola , og‘zidan ona suti ketmagan ketmagan go‘dak . (355-bet). og‘zidan ona suti ketmagan ketmagan go‘dak-yosh.

5. O‘rxon bolaku pinagini buzmaydi (364-bet) pinagini buzmoq-e’tibor bermaslik .

6. Unday bo‘lsa ishlar chakki emas (364-bet) ishlar chakki emas – yomon emas , joyida .

7. Oyisi albatta Kirishni, otasini, dengiz oviga chiqqanlarinig hammasini ko‘nglidan o‘tkazyapti (367-bet) ko‘nglidan o‘tkazmoq – o‘ylamoq.

8. Bola suvga qonganidan keyin kattalarning bunday paytlarda aytadigan “Ko‘nglim joyiga tushdi” degan gaplarining chin ekanligini his etdi (391 – bet) Ko‘ngli joyiga tushmoq – taskin topmoq.

9. Qiziq,- o‘ylardi Kirish, kim nima uchun ko‘ngli to‘ladi ? Kirish otasiga tortgan bo‘lsa , nima uchun unga tortgan xotinning ko‘ngli to‘ladi ? (392 – bet) ko‘ngli to‘lmoq – xursand bo‘lmoq , ishoch hosil qilmoq.

10. Bunaqa ishga suyagi yo‘q . (393 – bet) suyagi yo‘q –

11. Kirishning oyisi ham Mmilxunning qizlariga jonini beradi . (393 – bet) Jonini beradi – qo‘rqib , xavotirlanmoq .

12. Falokatga uchraganlar kechasi bilan jon hovuchlab, havoning ochilishini kutib chiqishdi. (404 – bet) Jon hovuchlab – qo‘rqmoq, xavotirlanmoq.

13. Hammaning yuragi orqaga tortib ketdi. Nima qilishni bilmay sukut saqlar edilar. (412- bet) Yuragi orqasiga tortib ketdi – qo‘rqmoq.

14. Umidsiz shayton deganlaridek , birgina shu fir ularga tasalli berib turardi, xolos.(435 – bet) umidsiz shayton – umis qilmoq, kutmoq.

15. Kirish o‘zining uxlab qolganidan o‘kinib ho‘ngrab yig‘lardi, uxlab qolmaganida otasiga tish tirnog‘i bilan yopishib olib, uni qo‘yib yubormagan bo‘lardi .(441-bet) Tish tirnog‘i bilan yopishmoq – astoydil harakat qilmoq.

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblangan barqaror birikmalar juda kop bo‘lib, ular katta o‘ringa ega. Turg‘un birikmalar turli xil uslubiy vazifalarni ham bajaradi .

Xulosa qiladigan bo‘lsak, matal va maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida yuzaga chiqadi. Iboralar hayotdagi turli voqea hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi to‘g‘ri yoki to‘g‘ri bo‘lmagan harakat – holatlalrni baholash, turmush tajribasini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir.

Umuman olganda, barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, uslubiy bo‘yoqdorlikka ega, emotsional – ekspressiv tasirchanligini kuchaytiruvchi, asarlarda keng qo‘llanilib, uni boyitish uchun hizmat qiladigan eng muhim til birligidir[3] .

**Adabiyotlar**

**1.** Chingiz Aytmatov . Tanlangan asar to‘plami . Ikkinchi jild , T . 2012.

**2.** Internet saytlari www.libvavy.ziyonet.uz

**3.** A.Omonturdiyev , N.Rahimnazarova Hozirgai o‘zbek adabiy tili (Akademik litsey talabalari uchun qo‘llanma). Termiz 2010

[3] Yo’ldoshev.M . badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari . T , “Fan” , 2006 , 53 – bet .

# ГУГУРТЛИ-УЧҚИР КЎТАРИЛМАСИНИНГ ЛИТОЛОГО-СТРАТИГРАФИК ТУЗИЛИШИ

**Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич**
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
E-mail: hikmat.panjiyev02@mail.ru

**Аннотация:** Мақолада Бухоро-Хива нефтгазли хавзасинидаги гугуртли – учқир кўтарилмасининг геологик тузилиши ва чўкинди қатламининг минералогик таркиби килтирилган. Гугуртли–учқир кўтарилмасида юра даври ётқизиқлар нефт ва газга истиқболли ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** Палеозой, мезазой ва кайнозой, Зекри, Дивалкак, Кушаб, юра, карбонат формацияси, туз ангидрит формацияси, неоком, альб.

**Abstract:** In the article, the geological structure and mineralogical composition of the sediment layer of the match-point uplift in the Bukhara-Khiva oil and gas basin are presented. Jurassic deposits in Gugurtli-Peak uplift are promising for oil and gas.

**Key words:** Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic, Zekri, Divalkak, Kushab, Jurassic, Carbonate Formation, Salt Anhydrite Formation, Neocomian, Alb.

Ҳудуднинг геологик тузилишида асосан мезо-кайнозой даврлари ётқизиқлари иштирок этади. Пойдевор жинслари устида турли горизонтларда триасдан тўртламчи даргача бўлган эпипалеозой платформани ташкил қилувчи чўкинди қоплама ётқизиқлари кескин бурчак ва стратиграфик номувофиқлик билан ётади.

Мезозой ётқизиқлари бурчак кўринишда ва стратиграфик номувофиқлик билан палеозой ётқизиқларининг дислокацияланган юзаси устига ётади ва юра бўр системалари жинсларидан ташкил топган.

**Юра системаси – J**

Литологик белгилар бўйича юра ётқизиқлари қирқим бўйича қуйидан-юқорида учта фациал қалинликга яққол ажралган, булар терреген, карбонат ва туз-ангдрит қатлари.

**Қуйи-ўрта бўлим – $J_{1+2}$**

Байос-бат яруси – $J_{1+2}$ b+bt

Терриген қаватининг чўкиндилари стратиграфик ва бурчак номувофиқлик билан палеозой ётқизиқларининг устида ётади.

Қуйи-ўрта терриген ётқизиқлари қўшни майдон ва конлардаги кўп қудуқлар орқали очилган.

Қуйи-ўрта юра ётқизиқлари асосан терриген контенентал чўкиндилари ва қисман қирғоқ-денгиз генезисидан иборат.

Қумтошлар полимиктли, майда заррали, алевритли, органик моддалар аралашмаси билан, глинали-карбонат цементли, доломитли. XVII горизонтнинг кутиладиган қалинлиги 70 м.

Ўрта юра бўлими – $J_2$

Келловой яруси – $J_2$ k

Бу регионда юра системасининг ўрта бўлими (қирқим бўйича қуйидан юқорида) карбонат жинсларда мансуб бўлиб, келловой яруси XVI ва $XV_a$ горизонларга бўлинади.

Терриген ётқизиқлари устида катта қалинликдаги карбонат қавати ётади ва барча жойларида тарқалган турли кўринишдаги оҳактошлардан иборат.

XVI горизонти кулранг, тўқ-кулранг, зич, турли даражада глинали ва битумланган пелитоморфли оҳактошлардан ташкил топган. Карбонат жинсларнинг майда зарралиги ва юқори глиналиги жинсларнинг коллекторлигини паст даражалигидан дарак беради ва шунинг учун ҳам XVI горизонт кесимида коллектолар мавжуд эмас.

Юқори бўлим – $J_3$

Бу регионда юра системасининг юқори бўлими (қирқим бўйича қуйидан юқорида) карбонат, туз-ангидрит формациясидан иборат бўлиб, мувофиқ

равишда Оксфорд-кимеридж (XV-1, XV-2, XV-3 горизонтларга бўлинади) ва титон яруси фарқланади.

Оксфорд-кимеридж яруси – $J_3k+o+kt$

Лойиҳаланадиган майдон кесимида оксфорд-кимеридж яруси XV-1, XV-2, XV-3 горизонтларга бўлинади.

XV-3 горизонти – кулранг, тўқ-кулранг, зич, қаттиқ, доломитлашган оҳактошлардан иборат бўлиб, мергел ва доломит қаватчалари учрайди. Бу горизонтнинг кутиладиган лойиҳавий қалинлиги 70 м.

XV-2 горизонти карбанат қаватининг ўрта қисмида ётади ва кулранг, тўқ-кулранг, зич, қаттиқ, доломитлашган, мергел ва доломит қаватчалий оҳактошлардан ташкил топган.

XV-1 горизонти Оксфорд-кимеридж ётқизиқлари кровлисида жойлашган бўлиб, кулранг, тўқ-кулранг, қаттиқ, глинали, глина, мергел ва алевролит ва ангидрит қаватчали оҳактошлардан иборат.

Оксфорд-кимеридж ярусининг умумий қалинлиги лойиҳаланадиган қудуқда 200 метрни ташкил қилади.

Титон яруси

Юра комплекси кесеми титон ётқизиқлари билан тугайди, бу ётқизиқлар туз-ангидрит қаватидан иборат. Бу районда Чорджоу поғанасининг бошқа районларига нисбатан кичик бўлган қалинликдаги ангидрит ва туз пачкалари учрайди. Ангидртлар оқ, бинафша чизиқли, зич кучсиз гипсланган тош тузи қаватчали. Титон ярусининг кутиладиган лойиҳавий қалинлиги 70 м.

Бўр системаси

Бўр ётқизиқлари денгиз континентал ва лагуна қолдиқли юқори ва қуйи бўлимлардан иборат.

**Неоком ярусусти – $K_1ne$**

Неоком ярус усти литологик таркиби бўйича фарқ қилувчи бир қанча пачкалардан таркиб топган. Оч-қизил, оҳактошли, қумтош ва алевролит қаватчалари билан қиттиқлашган глина пачкаси ётади.

Қулбешкак майдонида неоком ярус усти ётқизиқлариининг кутиладган умумий қалинлиги 290 м.

**Апт яруси – $К_{1ap}$**

Апт яруси асосан кулранг майда ва ўрта заррали, кварцли-слюдали, глинали, кулранг ва тўқ-кулранг, зич глина ва алевролит қаватчали қумтошлардан ташкил топган.

**Юқори бўр – $К_2$**

Юқори бўр ётқизиқлари сеноман, турон яруслари ва сенон ярус устига ажратилади.

**Сеноман яруси - $К_2$ s**

Сеноман яруси кесемини қуйи қисмида яшилсимон-қумтош, кулранг, майда ва ўрта заррали, зич кварцли-глаукон, слюдли, баъзи жойлари оҳактошли, ёмон сақланган кўп сонли фауна қолдиқлари билан глинали қумтошлар ётади.

**Турон яруси - $К_2$t**

Турон ётқизиқларига глина, ва қумтош жинслари қатламланиб келган.

Глинлар тўқ-кулранг, кўкимтир-кулран, кулранг, зич, ёғли, баъзи жойлари слюдли, алевролит ва қумтош қаватчалари учрайди. Турон ётқизиқларининг умумий қалинлиги 270 метрни ташкил қилади.

**Сенон ярус усти – $К_2^{sn}$**

Сенон ётқизиқларида глина, алевролит, қумтош ва оҳактош жинслари қатламланиб келганқумтошлар яшилсимон-кулранг, кулранг, яшилсимон чизиқли тўқ-кулранг, турли заррали, слюдли баъзи жойлари глинали, кучсиз оҳактошли участкали, қум, алевролит ва глина қаватчали.

Лойиҳаланадиган қудуқда сенон ётқизиқларининг қалинлиги 135 м. Бўр ётқизиқларининг умумий қалинлиги 1455 м.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Акрамходжаев А.М. и др. Литология, стратиграфия, нефтегазоносность Южного и Западного Узбекистана, Ташкент. ФАН. 1971. С. 200.

2. Арифджанов М.Х. Рифовые комплексы карбонатов келловей оксфорда Узбекистана. Ташкент. ФАН. 1975. С. 162.

3. Бабаев А.Г. Карбонатная формация юрского возраста платформенной области Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. ФАН. 1983. С. 1-160.

4. Бабаев А.Г., Симоненко А.Н. и др. Формация юрских палеоседиментационных бассейнов Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. 1990. С. 1-292.

# NOSTOC PUNCTIFORME VA SPIRULINA SUVO‘TLARIDAN LEKTIN MODDASINI AJRATIB OLISH

**Aliyeva D. X.** [2]

**Tashmuhamedova Sh. S.**[1].

**Tursunova S.Z.** [3]

1. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
2. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
3. Toshkent Farmasevtika Instituti

**Annotatsiya:** Lektinlar biotibbiyotda keng qo’llaniladigan murakkab oqsillar bo’lib, uglevodlarni bog’lash xususiyatiga ega hamda ular hujayra yuzalariga biriktirilgan glikanlarni, glikokonyugatlar yoki erkin shakarlarni, rak hujayralari va kasalliklari bilan bog’liq biomarkerlarni aniqlaydi. Lektin moddasi yordamida immunologik kasalliklar, yaralar va saratonni eksperimental davolashda samarali natijalarga erishilgan.[1] Suvo’tlaridan ajratib olingan lektinlar toksik bo’lmaganligi sababli tadqiqot ishimizning ob’yekti sifatida suvo‘tlari tanlab olindi. Bundan tashqari suvo’tlaridan ajratib olingan lektinlar antivirallik, antibakterial va onkomer kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

**Kalit so‘zlar:** suvo‘ti, lektin, glikoproteinlar, siyanobakteriya, fosfat buferi, ammoniy sulfat, dializ, SF ko‘rsatkichi, gemaglutinatsiya reaksiyasi.

# ISOLATION OF LECTIN SUBSTANCE FROM NOSTOC PUNCTIFORME AND SPIRULINA ALGAE

**Abstract:** Lectins are complex proteins widely used in biomedicine that bind carbohydrates and detect glycans, glycoconjugates or free sugars attached to cell surfaces, biomarkers associated with cancer cells and diseases. Effective results have

been achieved in the experimental treatment of immunological diseases, wounds and cancer using lectin.[1] Algae were selected as the object of our research because lectins extracted from algae are non-toxic. In addition, lectins isolated from algae are characterized by antiviral, antibacterial and oncomeric properties.

**Keywords:** algae, lectin, glycoproteins, cyanobacteria, phosphate buffer, ammonium sulfate, dialysis, SF index, hemagglutination reaction.

**Kirish**

Biologik faol moddalarni o‘simliklar, hayvon organizmlari va shu bilan birga suvo‘tlari tarkibidan ajratib olish mumkin. Ushbu biologik faol moddalar qatorida glikoproteidlar, ya’ni lektinlar alohida ahamiyatga egadirlar. Lektinlar uglevodlarni bog‘laydigan immun bo‘lmagan oqsillar bo‘lib, ular hujayralarni aglutinatsiya qiladi yoki glikokonyugatlarni cho‘ktiradi. Bundan tashqari, Nostoc ellipsosporum, Microcystis viridis, M. aeruginosa, Oscillatoria agardhii va Scytonema varium kabi siyanobakteriya turlaridan ajratilgan lektinlar, shuningdek, qizil suvo‘ti Griffithsia sp. virusga qarshi xususiyatlarga ega. Griffithsia va Cyanobacteria Scytonema variumidan ajratilgan lektinlar gepatit C virusiga (HCV) qarshi antiviral faollikni ham ko‘rsatdi. Bunday antiviral faollik virusli membranalarning glikoproteinlarida mavjud bo‘lgan lektinlar va yuqori mannozli glikanlar o‘rtasidagi bog‘lanish bilan bog‘liq bo‘lib, viruslarning maqsadli hujayralarga kirishini bloklaydi.[3]

**Tadqiqotning dolzarbligi**: Bu o‘rinda shuni takidlash joizki, suvo‘tlari tarkibida bo‘ladigan lektin moddasi biotibbiyotda o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Biroq lektin moddasini suvo‘tlaridan ajratib olishga asoslangan ilmiy tadqiqotlar biroz kamroq bo‘lib, ayniqsa Respublikamizda bu borada qilingan ishlar hali yana ko‘plab izlanishlar olib borishni taqozo etadi.Yuqoridagilarni hisobga olib, suvo‘tlaridan lektin moddasini ajratib olish protokolini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot olib borildi.

**Tadqiqot maqsadi:** antiviral, antibakterial hamda onkomer xususiyatlarga ega bo‘lgan toksik bo‘lmagan lektin oqsilini arzon tannarxli suvo‘tlaridan ajratib olish.

**Tadqiqotning obyekti:** Nostoc punctiforme hamda Spirulina suvo‘tlari va ajratib olingan lektin oqsili.

**Asosiy qism**

Dastlab suv o‘ti o‘stirish uchun ozuqa muhiti tayyorlab olinadi. Buning uchun 1 l distillangan suvga CaCl 0.5 gr, K2HPO4 0,4 gr, MgSO4 0,5 gr, Na3(C6H5O7) 0,1 gr va 1 ml mikroelementlar qo‘shildi. Tayyorlangan ozuqa muhitiga suvo‘ti shtammi ekildi va 700-1000 nm to‘lqin uzunligidagi yorug‘likda o‘stirildi. Buning uchun fotobioreaktordan foydalanildi. Bu suvo‘ti o‘sishini ancha tezlashtirib beradi. 2-3 haftada suvo‘tlari o‘sib , tadqiqot uchun tayyor holga keldi. Endi tadqiqotning asosiy qismi bajariladi. Dastlab 50 grdan Nostoc punctiforme (N.p.) va spirulina(Sp) suvo‘tlari xovonchada maydalab, ezilib, gomogenizatsiya qilindi.[4] So‘ng 500 ml 0.9 % li NaCl bilan suyultirib, 20 ° C haroratda 1 sutkaga magnit mishalkaga qo‘yildi. So‘ngra namuna filtrdan o‘tkazildi va 6000 x.g. tezlikda 10 daqiqa sentrifuga qilindi. Cho‘kma usti suyuqligi ajratib olinib, cho‘kmasi pH= 7.4 va pH=7.6 bo‘lgan 0.1 M li 20 ml (PPB) fosfat buferi bilan suyultirildi.[5]

1- 0.1 M li PPB ( Potassium Phosphate-Buffer ) tayyorlash

| pH | 1 M li $K_2HPO_4$ (ml) | 1 M li $KH_2PO_4$ (ml) |
|---|---|---|
| 7.4 | 80.2 | 19.8 |
| 7.6 | 86.6 | 13.4 |

So‘ngra hosil bo‘lgan preparat tarkibidagi glikoproteidlarni cho‘ktirish uchun $(NH4)_2SO_4$ tuzidan foydalanildi. Buning uchun ammoniy sulfat tuzining 60 % li eritmasida 1 sutka davomida 20°C da cho‘ktirildi.[8] So‘ngra 7000 ayl/min tezlikda 20 daqiqa sentrifuga qilindi va cho‘kma ajratilib 2 sutka davomida dializ qilinib tuzsizlantirildi. Dializdan so‘ng ajratib olingan glikoproteidlarni konsentratsiyasi SF da 750 nm da aniqlandi. Natija: N. p. da 28% , Sp da 30 % oqsil ajratib olindi. Olingan namunalar suyuq azot yordamida muzlatilib, liofil quritgichda quritib qo‘yildi.[6]

Ajratib olingan lektin faolligini tekshirish uchun gemagglutinatsiya tahlili o‘tkazildi. Buning uchun dastlab 2ml eritrotsit suspenziyasi olinadi va uni suyultirish uchun 5ml ringer eritmasidan solinadi.[9]Bu o’rinda shuni qayt etish lozimki lektinning biologik faolligini aniqlashda eritrotsitni qanday manbadan olish muhim rol o’ynaydi. Tadqiqotimiz uchun biz inson qoni eritrotsitlaridan foydalandik.Eritrotsit suspenziyasini tayyorlash uchun dastlab 2ml qon (inson) olinadi va uni suyultirish uchun 5ml ringer eritmasidan solinadi

**Lektin faolligiga pH va haroratning ta’siri**

Tozalangan lektinni 25° C da 30 daqiqa davomida har xil pH ning 0.1 M li buferlarida inkubatsiya qilish orqali pH ning lektin faolligiga ta’siri gemagglutinatsiya reaksiyasi bilan aniqlanildi. Buning uchun pH=4,0-7,5 gacha bo‘lgan sitrat fosfat, pH=7,0-9,0 gacha bo‘lgan Tris-HCl buferlaridan foydalanildi. PH barqarorligini aniqlash uchun tozalangan lektin (50 mkl) har xil pH da 25 ° C da buferlar (50 mkL) bilan inkubatsiya qilindi, so‘ngra namunalar neytrallashtirildi va pH barqarorligini aniqlash uchun faollik 30, 60 va 90 daqiqadan so‘ng tekshirildi. turli pH da lektin. Qoldiq faolligi standart tahlil sharoitida aniqlandi. Optimal haroratni aniqlash uchun gemagglyutinatsiya faolligi 20 dan 100 ° C gacha bo‘lgan haroratlarda o‘lchandi. Termal barqarorlik tozalangan lektinni 30, 60 va 90 daqiqa inkubatsiyadan keyin belgilangan haroratlarda oldindan inkubatsiya qilish bilan tekshirildi va standart tahlil sharoitida gemagglyutinatsiya uchun tahlil qilindi.[8] Har ikkita suvo‘tidan ajratib olingan lektin pH 7,0-7,5 va 20 dan 50 gacha bo‘lgan haroratda optimal faollikni ko‘rsatdi. Lektin termobarqarorlikni namoyon etdi va 50 ° C da 100% faollikni saqlab qoldi. Lekin 60 ° C da 30 daqiqa qizdirilganda lektinning gemagglutinatsiya faolligi pasayib bordi va 70 °C da 30 daqiqa qizdirilganda gemagglyutinatsiya faolligi butunlay bekor qilingan( 1– va 2- grafiklar).




## Xulosa

Biz bu tadqiqotni amalga oshirish uchun Nostoc punctiforme va Spirulina suvo‘tini tanladik. Glikoproteidlarni ajratib olish metodikasini qo‘llagan holda ushbu suvo‘tlaridan lektinni ajratib oldik.Ekstraktda lektin oqsilining mavjudligi gemagglyutinatsiya tahlillari bilan aniqlandi. Tozalangan lektinning aniq molekulyar massasi natriy dodesil sulfat (SDS-PAGE) ishtirokida Poliakrilamid gel elektroforezi bilan baholandi. Shunday qilib, lektin Nostoc punctiforme va Spirulinadan tozalangan degan xulosaga kelish mumkin edi.Tozalangan lektinni xususiyatlarini o‘rganish uchun unga har xil pH sharoitlari va harorat ta’siri o‘rganildi va lektin oqsili uchun optimal pH=7,0 va 7,5 , optimal harorat esa 20 ˚ C dan 50 ˚ C gacha degan xulosaga kelindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ANTÔNIA S. DE OLIVEIRA, CLÁUDIA F. LÓSSIO1, ANNE J. RANGEL, MARIA G.Q. MARTINS1, FERNANDO E.P. DO NASCIMENTO1, MARIA L.L. DE ANDRADE , BENILDO S. CAVADA1, SÍRLEIS R. LACERDA and KYRIA S. DO NASCIMENTO “Detection, purification and characterization of a lectin from freshwater green algae Spirogyra spp.” Anais da Academia Brasileira de Ciências (2017) 89(3 Suppl.): 2113-2117 (Annals of the Brazilian Academy of Sciences)

2. Методы контроля. Химические факторы. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1.1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004.

3. Rekha Marndi Isolation and Characterization of Concanavalin A from the seeds of Canavalia ensiformis. A Thesis submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Science In Life Science Submitted To National institute of technology, rourkela. India 2012. P. 1-44.

4. Сытников, Д.М. Участие лектинов в физиологических процессах растений / Д.М. Сытников, С.Я. Коць // Физиология и биохимия культурных растений. – 2009. – Т. 41. – С. 279-296.

5. Ouafae Akkouh , Tzi Bun Ng , Senjam Sunil Singh , Cuiming Yin , Xiuli Dan,Yau Sang Chan , Wenliang Pan and Randy Chi Fai Cheung “Lectins with Anti-HIV Activity: A Review”(2015)

6. A. J. Silva & V. L. R. Cavalcanti & A. L. F. Porto& W. A. Gama & R. M. P. Brandão-Costa & Raquel Pedrosa Bezerra “The green microalgae Tetradesmus obliquus (Scenedesmus acutus) as lectin source in the recognition of ABO blood type: purification and characterization” Received: 29 April 2019 / Revised and accepted: 9 September 2019 # Springer Nature B.V. 2019

# YANGI O‘ZBEKISTON

**Bozarova Rayhona Elyorbek qizi**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti Tarix fakulteti ,
Tarix yo‘nalishi 202- guruh talabasi

**Annotatsiya :** Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar jahonning yirik mamlakatlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va farmoyishlar yurtimizning yanada yuksalishi uchun poydevor yaratmoqda . Mamlakatimizda yoshlar siyosatiga qaratilayotgan e’tibor, yurtimizni Yangi O‘zbekiston sifatida shakillanishiga sharoit yaratmoqda ko‘kka bo‘y cho‘zishiga imkoniyat yaratmoqda

**Kalit so‘zlar:** Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston Strategiyasi, Xalqaro Hamjamiyat, Markaziy Osiyo davlatlari, Yettita Ustuvor Yo‘nalish, Shavkat Mirziyoyev, ,,Harakatlar strategiyasi - Taraqqiyot strategiyasi”

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat , hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish. Shunday munosabatlar avvalo, o‘zining qo‘shnilari bo‘lmish Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘rnatilayotganligi ham, albatta, tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson

qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida: Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqib ilgari surilgani bugungi kunda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro ekspert va kuzatuvchilar tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Ushbu strategiya mamlakatimiz rivojlanishining turli sohalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida qurilgan. E’tiborli jihati shundaki, davlatimiz rahbari erishilgan yutuqlarni tom ma’nodagi Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki qadamlar deb baholamoqda. Butun xalqimizni doimo islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga va jadal olib borishga da’vat etmoqda. Shu jumladan, Yangi O‘zbekiston strategiyasida O‘zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat bo‘lib, unda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yangi pog‘onaga ko‘tarilishi, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy va zarur sharti, milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlangan. Shu boisdan ham bu - Yangi O‘zbekiston taraqqiyot srategiyasini nafaqat butun xalqimiz balki xalqaro hamjamiyat ham yangi mamlakat qurishdagi eng to‘g‘ri yo‘l deb baholamoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

2. mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

3. milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;

4. adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

5. ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

6. milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

7. mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Hozirgi kunda 34 millionlik aholiga ega bo‘lgan, o‘tgan davrda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to‘g‘ri yo‘l tanlash – bu davlat rahbaridan ulkan aql-zakovat, bilim va tajriba, mustahkam iroda, jasorat va azmu shijoatni talab etadi. Ayni vaqtda tanlangan rivojlanish yo‘lini ijtimoiy institutlar, ta’sirchan mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etish, odamlarni islohotlarning maqsadi va natijasiga ishontirish, butun jamiyatni ruhlantirib, ulug‘ maqsadlar sari safarbar eta olish – yanada murakkab vazifa, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Ana shunday o‘ta mashaqqatli vazifani amalga oshirishda Shavkat Mirziyoyev xalqning o‘ziga tayandi – fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borib, har bir soha va tarmoq bo‘yicha bevosita uchrashuvlar, maslahat va fikr almashuvlar o‘tkazib, mavjud muammolarning samarali yechimini topmoqda. Bu murakkab ijtimoiy voqea-hodisalarning qanchalik shiddat bilan kechayotganini ushbu to‘plamdan o‘rin olgan serqirra jarayonlar yaqqol tasdiqlaydi. O‘zbekiston hozirgi holatiga kelgunga qadar juda ham ko‘p mashaqqatli va zalvorli yo‘lni bosib o‘tdi. Hozirgi shukrona kunlarimizning bari mustaqillik tufayli.

. Rivojlanib borayotgan mustaqil O‘zbekistonimizni islohotlar va taraqqiyotlar mamlakati ya’ni, Yangi O‘zbekiston deya atasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida aytganda, bugun O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida muntazam ravishda muhim tashabbuslar va siyosiy takliflarni ilgari surmoqda. Prezidentimiz amalga oshirayotgan ulug‘vor ishlarni nafaqat xalqimiz qo‘llab-quvvatlamoqda, balki dunyo hamjamiyati ham alohida e’tirof etmoqda. Bu mustaqil O‘zbekistondagi yangicha boshqaruv, yangi strategiya va yangi imkoniyatlarning amaldagi yorqin namunasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. ―O‘zbekiston‖. Toshkent 2022.

2. Gazeta. uz havkat Mirziyoyev raisligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini yanada oshirish borasidagi dolzarb vazifalar muhokamasiga bag_ishlangan videoselektor yig_ilishidan. https://www. gazeta. uz/oz/2021/01/19/foundation/

3..R.Azimov ,,Yangi O‘zbekiston islohotlari - Taraqqiyot va xalq farovonligi yo‘lida

4.w.w.w.gov.uz - O‘zbekiston Raspublikasi hukumati portali

# AHOLINING O‘SISHI VA UNING OQIBATLARI

**Murodova Saodat Meliyevna**
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

**Annotatsiya**. Maqolada hozirgi vaqtda yer yuzida aholining o‘sishi va uning oqibatlari,aholining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, insoniyatning tabiatga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘z:** Aqlli inson, flora, fauna, BMT, fertil’nost, urbanizatsiya.

# POPULATION GROWTH AND ITS CONSEQUENCES

**Annotation:** The article presents information about the growth and consequences of the population on earth, the factors that affect population growth, and the impact of mankind on nature.

**Keyword:** Intelligent man,flora,fauna,UN,fertility,orbanization**.**

Hozirgi vaqtda yer yuzida 7 837 milliard aholi istiqomat qiladi. BMTning aholini o‘rganish departamenti ma’lumotiga qaraganda 2075-yilga borib aholining soni bir yarim barobar oshib deyarli 9,2 milliardga yetadi,keyinchalik aholining o‘sishi biroz sekinlashadi.

Ammo keying uchyuz yillikda aholining soni 8-9 mlrd atrofida bo‘ladi. Pessimistik ma’lumotlar aholining o‘sishi to‘xtamasdan keying uchyuz yillikda 300 mlrd ga borishi bayon qilinadi.

Bundan 40 ming yillar avval paydo bo‘lgan “aqlli inson”tabiatga misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar qilib,boshqa jonzotlarga qaraganda yer yuzini to‘liq egallab, unga hukmronlik qila boshladi.Insonlar o‘zining ongli hayot tarzi bilan atrof-muhitga tez moslashib atrofni o‘zlashtira boshladilar.Hozirda inson o‘zining manfaati uchun yer sharining yarmidan ko‘pini o‘ziga bo‘ysundirib, uning 25%ini yaylovlar uchun, 11%ini haydalgan yerlarga aylantirgan, 2-3%ini uy-joylar qurish va sanoat ob’yektlari

uchun foydalanadi. Hozirda sayyoramizdagi daryolarning yarmi ifloslangan va suvi kamaygan. 277 yirik suv shahobchalarini yoki 60%i plotinalar va boshqa injenerlik inshootlarini qurilishi natijasida sun’iy ko‘llar hosil bo‘lib, atrof-muhitning ekologik sharoiti buzila boshlagan.

Inson ko‘plab flora va faunaning yashash joyiga ta’sir qilib, yer yuzidan o‘simlik va hayvonlarning yo‘qolishiga sababchidir.Bu biosferaning bizga ko‘rinib turadigan o‘zgarishidir.Insonlar jahon okeanidagi 2/3qismidagi jonivorlarni ovlab ekologik ahvolni tang holiga keltirib qo‘ydi.

Faqat XX asr davomida qirg‘oqbo‘yi o‘rmonlarning yarmini yo‘qotib, korall riflarining o‘ndan biri qayta tiklanmaydigan holga kelgan.

Aholining tez sur’atda o‘sishi natijasida tabiat xomashyolarini qayta ishlashdan, turmush axlatlaridan chiqadigan chiqindilardan iborat tog‘-tog‘ mahsulotlar paydo bo‘lmoqda. Rossiya olimi V.A.Kovda ma’lumotiga ko‘ra insonlarning tabiatga chiqaradigan chiqindilari biosferadagi tabiiy holdagi chiqindilardan 2000 marta ko‘pdir. Biosferada antropogenning ta’siri kuchayib, biroz o‘ylamay qo‘yilgan noto‘g‘ri qadam insoniyatni halokatga olib kelishi mumkinki,bundan qutulishning imkoni qolmaydi.

Aholining uzoq muddatli prognozi bilan shug‘ullanuvchi BMT ning ishchi – texnik guruhining hisobotida fertil’nost(ayollarning hayoti davomida o‘rtacha farzand ko‘rishi)ga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Salgina fertil’nostni o‘zgarishi yer yuzi aholisining ko‘payishiga katta ta’sir qiladi.

Agar aholini o‘sishi 1974-yili 2075-yilda 12.2 milliardga yetadi deyilgan bo‘lsa, 1992-yildagi prognozga ko‘ra bu miqdor 11,6 milliardga, 2003-yilda esa 9,2 milliardga yetishi ta’kidlanadi. Bunday xulosaga kelishiga sabab, uncha taraqqiy etmagan.davlatlarda fertil’nostni kamayishi bilan izohlanadi.. Jahonning 4/5qismi istiqomat qiladigan bu hududdagi o‘sish kelajakda aholini o‘sishini boshqaradi.Shunday qilib, yangi bashoratlarga qaraganda 2075-yilda aholi soni 9 milliard atrofida bo‘ladi.

Voqealarni bunday kechishi uch sharoitga bog‘liq .Birinchidan aholini moddiy-ijtimoiy holatini o‘sishi o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab aholi jon boshiga bo‘lgan

daromad 7,2%,2000-2010 –yillarda taxminan 37% ga o‘sadi. Ikkinchi sabab-kam rivojlangan mamlakatlardagi aholining savodxonligini oshishi 1990-2000 –yillar davomida bu hududda boshlang‘ich maktablarda o‘qiydigan o‘quvchilarning soniga 57,3 million o‘quvchi qo‘shildi. Aholining savodxon bo‘lishi ishlab chiqarishda katta foydalar olib sharoit yaxshilanishiga olib keladi. Uchinchi omil-fertilnostni kamayishi. O‘rbanizatsiya sanoatning rivojlanishi qishloqdan shaharga intilishini kuchaytiradi.

Shuning bilan birga aholini OITS va boshqa yuqumli kasalliklardan nobud bo‘lishi kuchaymoqda. Jahonda yuqumli kasalliklarni tashuvchi 60 mln dan ko‘p insonlar bo‘lib ,22 mln kishi o‘ladi.

Har yili OITS dan 15 ming aholi zararlanmoqda.Ayniqsa kambag‘al davlatlarda bu ko‘rsatgich yuqori. Buning asosiy sababi kasalxona va tibbiyot asboblarining yetishmasligidir.

Dunyo aholisi so‘ngi 60 yil ichida 2,6 marta o‘sdi. Yer yuzi aholisining mutlaq soni yiliga 90 mlnga oshmoqda. Vashington shtati universiteti olimlarining taxminiga ko‘ra 2100- yilga borib sayyoramizdagi bir ayolga 1,7 nafar bola to‘g‘ri keladi.Butun dunyoda har soniyada o‘rtacha 2,6 nafar chaqaloq tug‘iladi.

Aholi soni bo‘yicha dunyodagi eng ko‘p davlatlar:

1. Xitoy 1 367 820 000
2. Hindiston 1 265 860 000
3. AQSH 320 253 000

Xulosa qilib aytganda ,hozirgi vaqtda juda tez sur’atlarda o‘sib borayotgan yer yuzi aholisi tabiatga bir qancha o‘zining ijobiy va salbiy ta’siriniko‘rsatmoqda.Bu esa insoniyatning oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qodirov E.B,Shermetov M.SH,Akbarov X.A. va boshqalar ”Muhofaza hududlari va bioxilma-xillik” 2009.

2. http://geografiya.uz sayti

3.http://uz.vikipediya.org sayti

4.http://www.trt.net.tr>dunyo sayti

# JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDAGI BIOLOG OLIMLAR VA ULARNING ILMIY FAOLIYATI

**Murodova Saodat Meliyevna**
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**ANNOTATSIYA:** Jizzax davlat pedagogika institutidagi biolog olimlarning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, ularni amaliyotda qo‘llash yuqori natijalarga erishishga imkoniyat beradi.Jumladan olimlarning qishloq xo‘jaligi soxasiga, tibbiyotga qo‘shgan hissasi muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy soha, iqtisodiy soha, ilm –fan va ta’lim integratsiyasi, Oliy ta’lim, maktab faoliyati, tibbiyot soxasi, asalarichilik, chorvachilik, oziq-ovqat sohasi.

# BIOLOGISTS AT THE JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY AND THEIR SCIENTIFIC ACTIVITY

**ANNOTATION:** Studying the contribution of biologists to the socio-economic development of the region at the State Institute of Education in Belarus, their application in practice allows you to achieve high results. The contribution of scientists to agriculture and medicine is important.

**Keywords:** Social sector, economic sector, integration of science and education, higher education, school activities, medicine, beekeeping, livestock, food sector

**Biologiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi .** Kafedra 1979-yilda “Tabiatshunoslik asoslari” nomi bilan tashkil qilingan va unga biologiya fanlari nomzodi, dotsent Boyqobilov T.B. mudirlik qilgan. Kafedrada 1 nafar dotsent va 4 ta fan nomzodi faoliyat ko‘rsatgan.

1980-1982 yillarda biologiya fanlari nomzodi, prof. Rasulov M.R. rahbarlik qilgan, 1 ta professor va 4 ta fan nomzodlari faoliyat ko‘rsatgan.

1982-1988 yillarda biologiya fanlari nomzodi, dotsent Esonqulov S.E. kafedraga mudir etib saylangan. Shu davrda kafedrada 1 ta professor, 4 ta dotsent, 9 ta fan nomzodlari va 3 nafar o‘qituvchi ta’lim-tarbiya ishlarini olib borganlar.

1988-1989 yillar dotsent Sulaymonov E.S., kafedra mudiri etib saylandi.

1989 yilda dotsent Mavlonov X. kafedra mudirligiga saylanib, so‘ng O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining “Botanika” IICHM ga doktorant bo‘lib ketishi munosabati bilan mudirlik vazifasi 1991-1993 yillarda dotsent Esonqulov S.ga yuklatilgan.

1993-1996 yillarda prof. X.Mavlonov kafedrani boshqargan. Kafedrada 1 ta professor, 5 ta dotsent, 10 ta fan nomzodi va 16 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan. 1996 yil noyabr oyidan boshlab, dots. S.Esonqulov kafedra mudiri vazifasini bajargan. 1997 yil dekabr oyida “Tabiatshunoslik asoslari” kafedrasi bazasida 4 ta kafedra tashkil etildi. “Biologiya va uni o‘qitish uslubiyati” kafedra mudiri dotsent S.Esonqulov, dotsent X.Qo‘shmambetov, katta o‘qituvchi D.Imomova, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, prof, O‘.Pratov, b.f.d. U.Raxmonqulov, b.f.d. X.Mavlonov, o‘qituvchilar G‘.Qodirov, N.Karimova, N.Balabekovalar talabalarga ta’lim tarbiya berib kelganlar.

2006 yilning may oyida O.Mamaraximov kafedra mudiri etib saylandi.

2007 yilda esa b.f.d. X.Mavlonov mudir lavozimiga saylandi.

2012 yil mart oyidan boshlab, “Inson xayotiy faoliyati muxofazasi” va “Biologiya va uni O‘U” kafedralari birlashtirildi, unga b.f.n. D.Imomova kafedra mudiri etib tayinlandi. Shu davrda kafedra “Umumiy biologiya va uni o‘qitish uslubiyati” kafedrasi nomi bilan atalib, unda 2 ta fan doktori, 2 ta dotsent, 5 ta fan nomzodi, 5 ta katta o‘qituvchi, 13 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan.

2012 yilda biologiya yo‘nalishidagi 301 guruh talabasi Imomova Dilafruz “Ulug‘bek” nomli davlat stipendiyasi sovrindori bo‘ldi. Kafedrada 2012 yil 5 iyun Xalqaro tabatni muxofaza qilish kuniga bag‘ishlab viloyat miqyosida “Bioxilma – xillikni saqlashda muhofaza hududlarining roli”(2012 yil 4-5 iyun) nomli konferenitsiya o‘tkazildi.

Unda kafedra professor – o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan 30 dan ziyod maqola nashr ettirildi. Hozirda kafedra a’zolaridan F.Rabbimova, Sh.Zokirova,

D.Azimova, D.Maxammadievlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib yangi nizom asosida himoyaga tayyorlanishmoqda.

Kafedra o‘qituvchilaridan N.Abdullaeva, L.Ortiqovalar maqsadli katta ilmiy xodim izlanuvchi tayyorlash bo‘limga (doktaronturaga) hujjat topshirib, unga qabul qilindi. 2012-2013 o‘quv yildan boshlab kafedrada «Botanika» yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bo‘limi ochildi. Hozirgi kunda magistratura bo‘limida talim olayotgan 10 nafar magistrantga kafedra professor – o‘qituvchilaridan prof X.Mavlonov, prof U.Rahmonqulov, b.f.n D.Imomova, b.f.n N.Qarshiboyeva, b.f.n L.Sanayeva, b.f.n G‘.Qodirovlar dars berish bilan birgalikda ularga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

2015 yilda kafedra professor – o‘qituvchilari tomonidan 1ta mongrafiya, 1 o‘quv qo‘llanma, 3 ta uslubiy qo‘llanma, 85 dan ziyod ilmiy maqola va tezislar nashr ettirildi. 2016 yilda kafedra professor – o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanayotgan ilmiy – uslubiy ishlardan quyidagilarni aytib o‘tish mumkin.

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol

usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarni o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Interfaol o‘qitish — bu, avvalo, dialog tarzda o‘qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir.

Interfaol o‘qitishning asosiy mohiyati — o‘qitish jarayonida barcha o‘quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muxokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo‘llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.O‘quv materialini o‘rganish, muammoni hal etish bo‘yicha turli variantdagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o‘quvchilaming hamkorligi har bir o‘quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o‘z ulushini qo‘shishga, ular o‘rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o‘zaro yordam muhitida sodir bo‘lganligi uchun, o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki o‘zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi,uni yuqori darajaga ko‘tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

O‘qitish jarayonida va interfaol usullarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda o‘quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda, har bir o‘quvchi uchun ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etishga kirishib ular o‘rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi.Interfaol usullar qo‘llanilganida o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydi.

O‘quv munozaralari va bahslami tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

I. O‘quv munozaralari va bahslarni keltirib chiqaradigan o‘quv topshiriqlari bilan tanishish.

II. O‘quv topshiriqlaridagi muammolarni hal etish yo‘llarini belgilash.

III. Axborot manbayi yoki darsliklardagi o‘quv materialini o‘rganish, tahlil qilish va undagi asosiy g‘oyani ajratish.

IV. Muammolarni hal etish bo‘yicha javoblarni tayyorlash.

V. Javoblarni ko‘rgazmali vositalar yordamida dalillash.

VI. Javoblarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish.

VII. O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazoratni amalga oshirish

rivojlantiradi.

Albatta interfaol darslarni tashkil etishning ham o‘ziga yarasha kamchiliklari mavjud.

1. O‘quv-biluv jarayoni ko‘plab vaqt sarflashni talab qiladi.

2. Interfaol mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilarni kerakligicha nazorat etib borishning imkoniyati bo‘lavermaydi.

3.Juda murakkab materiallar o‘rganilayotganda o‘quvchilar muammoni to‘liq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o‘qituvchining roli past bo‘lishi kuzatiladi.

4.Guruhlarda dars jarayoni kechayotganda kuchsiz o‘quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o‘quvchilar ham past baxo olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o‘qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo‘yicha mushoxada yuritishga, muammolarni o‘z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Saidahmedova N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar –T.:Moliya, 2003

2.Tolipova J.O. “Biologiyani o‘qitishda innavatsion texnologiyalar” T: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014

3.H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev ‘‘Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat ‘‘ T -’’ Iqtisodiyot moliya ‘‘-2009

# O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA MATN YARATISH METODINING O‘RNI

**Doniyorova Mohinur**
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya**

O‘qituvchi oldidagi eng muhim vazifalardan biri bu – o‘quvchilar savodxonligi va so‘zlashuv nutqini o‘stirishdan iborat bo‘lib, ushbu maqola aynan nutq o‘stirishda muhim omil bo‘lgan matn yaratish haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq va uni o‘stirish, metod va usullar, matn yaratish, so‘z boyligini oshirish.

O‘quvchilarda nutq va uni o‘stirish har doim dolzarb mavzu bo‘lgan. Nutq kishi faoliyatining turi til vositalari (so‘z,so‘z birikmasi,gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi uchun uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurulishi, bog‘lanishli nutqni) aktiv amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi nazarda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurulishi va bog‘lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. O‘quvchilarning nutqni o‘stirish, asosan, ona tili va adabiyot darslarida amalga oshiriladi.Xususan, Ona tili ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta’minlash, so‘z boyligini oshirish, nutqiy faoliyatini shakllantirish, o‘quvchining muomala-muloqot san’atidan xabardor

qilish, turli mazmun shakllardagi munshaot matnlari, badiiy ramziy matnlar ustida ijodiy ishlash, egallangan BKMlar asosida kichik matnlar, monolog va dialoglar tuzish orqali o‘quvchini mustaqil matn yaratishga o‘rgatish kabi ijobiy o‘quv motivlarini hosil qilishdan iborat bo‘lib, u ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.Zero, mustaqil yaratilgan matn o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqealanishi, tugal bir mazmunning o‘quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Matnlar o‘zining qator xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. O‘quvchi matn ustida ishlar ekan turli murakkablik, qiyinchiliklarga duch keladi, muommoli vaziyatdan chiqish, uning yechimlarini topish yo‘llarini qidiradi. Matn ustida ishlash faoliyati faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videolavhalar ustida ishlash ham o‘quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi tabiiy.

Tabiiyki, ijtimoiy jamiyatda yashovchi har bir shaxs yoshligidanoq o‘zaro muloqot, muloqot jarayonida fikrlash va fikr ifodalash zaruriyatini chuqur his qiladi. Insonning ma’naviy hayoti mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba – nutqiy muloqot hisoblansa, insoniyat erishgan taraqqiyot, madaniy merosni keying avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng ishonchli yo‘li – ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash – mustaqil matn yaratish malakasini egallashdir. Bunday malakaga ega bo‘lishning birinchi sharti – o‘quvchilarni tayyor matn ustida ishlashga o‘rgatish, matn tarkibida mavjud bo‘lgan mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni qiyinchiliksiz aniqlash va bartaraf etish, matn mazmuni, shakli va uslubini turfa yo‘nalishda qayta ishlash,ixchamlash, kengaytirish,matn tilini boyitish (epigraf, sitata,ibora va tasviriy vosita, maqol, hikmatli so‘zlar kiritish) ko‘nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil qilish va tahrir qilish yo‘llarini o‘rganishga yo‘naltirishdir. Grammatik shakllarni o‘rganishdan maqsad – o‘rganilayotgan lisoniy qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishni nazarda tutadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarining shakllanishida topshiriqli mashqlar tizimida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar o‘quv maqsadiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Ta’limiy mashqlar. 2. Nazorat mashqlari.

Bajarilish o‘rniga ko‘ra sinf ishlari va uyishlari farqlanadi.

Fikr ifodalash shakliga ko‘ra og‘zaki va yozma, analitik, analitik sintetik va sintetik mashqlar uchraydi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar tayyor va yaratilajak matnlar ustida olib boriladigan o‘quv faoliyatini o‘z ichiga oladi.Shuningdek, “Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar:

-“Ijodiy yozma ish” (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa – buyum, voqyea – hodisa tasviri;

-o‘quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish – o‘quvchining (muallifning) o‘zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzu va uning nomlanishi bilan uyg‘unligini ta’minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o‘quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o‘xshatishlari, hukm va xulosalari;

-yozma ishning rejasi, unga qo‘yilgan asosiy talablari; tor reja, keng reja;

-manzilgohni yozish;

-mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; “xat boshi” tushunchasi; yozma ish ustida qayta ishlash; uyadosh, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlardan foydalanish;

-matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;

-ishni oqqa ko‘chirish;

-xatolar ustida ishlash.

Demak, matn ustida ishlash, matnni tahrir qilish mashg‘ulotlari, o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni kafolatlaydi. Ayni damda o‘zbek

tilshunosligi o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Davr fanimiz oldiga milliy til va milliy ma’naviyat mushtarakligi masalasiga daxldor yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu ma’noda, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Dunyodag qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin, - deya tilning milliy ma’naviyat yuksalishidagi roliga alohida e’tibor qaratdi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish dolzarb masala qilib belgilandi. Darsda didaktik o‘yinlardan foydalanish ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan hisoblanadi.

O‘quvchilarning ko‘nikma va malaka me’yorini quyidagicha belgilash mumkin: **O‘qiganda –10 % , Eshitganda – 20%, Ko‘rganda – 30% , Eshitib , ko‘rganda – 50%, Muhokama , bahs-munozara – 70% , Shaxsan o‘zi bajarganda – 80%, Sinfdoshlari bilan bajarganda – 90%**

Shu o‘rinda, Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb bilaman: “Menga gapirsang esdan chiqaraman , menga ko‘rsatsang, eslab qolishim mumkin , menga o‘zimga ishlashga imkoniyat ber , shunda bu batamom meniki bo‘lib qoladi”.

O‘zbek tili darslarida qo‘llanilgan har bir metod o‘quvchining ijodiy fikrlashini, nutqini o‘stirishga xizmat qilishi kerak. Chunki mustaqil fikrlay oladigan o‘z nutqini ravon bayon qila oladigan shaxs jamiyatimizning barkamol shaxsi bo‘lib yetishishiga also shubha yo‘q.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoyev:”O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz”
2. Nutq turlari.O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar 16-dekabr.2020yil
3. O‘quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari 1-yanvar 2022yil
4. Maktab darsliklari
5. http://ziyonet.uz

# QORAQALPOQ ADABIYOTI NAMOYONDASI BERDAQ IJODIYOTINI O‘RGANISHNING MOHIYATI

**Norqo‘ziyeva Fotima**
Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Qoraqolpoq klassik adabiyotining namoyondasi deb nom olgan Berdaqning hayoti-ijodi jarayonini o‘rganish ta’lim muassasalarida qay darajada ekanligi haqida fikr yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Berdaq hayoti va ijodi, adabiy meroslari, qo‘lyozmalari.

**Аннотация:** Подумаем об уровне изучения жизнетворческого процесса Бердака, известного как представителя каракалпакской классической литературы, в учебных заведениях.

**Ключевые слова:** жизнь и творчество Бердака, литературное наследие, рукописи.

**Abstract:** We will think about the level of study of the life-creative process of Berdak, who is known as the representative of Karakalpak classical literature, in educational institutions.

**Key words:** Berdak’s life and work, literary heritage, manuscripts.

Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

[9] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020 yil

Dunyoda ilm-fan taraqqiy etmagan hech bir o‘lkada erkin va farovon jamiyat qurib bo‘lmasligini hayotning o‘zi takror-takror isbotlagan. Hozirgi zamonda o‘tmish va kelajakni bir-biriga bog‘lovchi zanjir yoshlarning intellektual salohiyati bilan ekanligi adiblarimiz asarlarida takidlab aytilib kelingan.

Qoraqalpoq diyori o‘zining dunyoda o‘xshashi yo‘q,betakror, boy va yuksak san’ati bilan barchamizni hayratga solib kelgan. Qoraqalpoq adabiyotining o‘z yo‘nalishi, uslubi va fikriga ega xalq shoiri Berdaq haqida so‘z ketganda Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li XIX-asrning birinchi choragida 1827-yil 9-noyabrda Qoraqalpoq Qo‘ng‘irot beyligiga qarashli Amudaryo Orol dengizining Quyliko‘l ovulida dehqon oilasida tug‘ilgan. Berdaq o‘z davrining ziyoli, o‘ziga xos teran fikrli, o‘z zamandoshlaridan ko‘ra angicha fikrli va yuksak mavqega ega shaxs bo‘lgan.

Boshlang‘ich ta’limni avval ovul maktabida, so‘ngra esa madrasada tahsil ko‘rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini chukur mutola qilgan, ulardan o‘rgangan. U tarixni va xalq, og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she’rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19-asrlardagi ijtimoiy hasti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzulari “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrim” va boshqalar. Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni orzu qilgan. O‘zining sherlarida “Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqa mavzularda ko‘plab bitiklarni yozib kuyga solgan. Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdoqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar solnomasi bo‘lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Berdaq ba’zi ta’magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etib “Yaxshiroq”, “Shekilli” kabi sherlarida va boshqa asarlarida yozadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi o‘zining

“O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar sherlarida ham ko‘plab pand nasixatli tarizda muammolarni yoritadi.

She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quydagi “Yordam ber” sheri orqali, baxt haqida fikr yuritadi. “Izladim” sheri orqali esa odil podshoni orzu qiladi “Kerak” sheri bilan baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi (1998). Shoir tug‘ilgan joy Bo‘zatovda ham xaykali o‘rnatilgan 1998-yil. Nukus shahrida Berdaqga haykal qo‘yilgan, musiqali drama teatri, ko‘cha va maktabga Berdaq nomi berilgan. Berdaq shoirlik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo‘q, is’tedodli shaxslardan hisoblangan. Zamonasining taniqli va barchaning hurmadiga sazovor bo‘lgan, elardog‘idagi shoir bo‘lgan. Berdaq yoshligidanoq ilmga chanqoq, ziyrak, bola edi. Berdaq islomnig muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’oni Karimni va dunyo tarixi va adabiyotini o‘rgangan. Shoirning ilmga bo‘lgan mehri va chanqoqligini hozirgi zamon yosh avlodlariga o‘rnak qilib ko‘rsatsek arziydi.

Qoraqalpoq klassik adabiyotining buyk shoiri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining boy va mazmunli ijod namunalarini bizgacha yetib kelgan sherlaridan bir olam mano olish mumkin. Misol tariqasida o‘sha zamonning ilim yo‘lidagi mashaqqatlarini qiyinchiliklarini quydagi misra orqali ko‘rib chiqsak.

Zamon qanday zamon bo‘ldi
Qarag‘ay boshin sho‘rtan chaldi.
Bir nechisidan ko‘nglim qoldi.
Yorug‘ yo‘lni izlar bo‘ldim.

Bu misralarda shoir o‘z xalqining orzu armonini ifoda etishga, o‘sha davrning nohaqliklarini va ilim yo‘lidagi mashaqqatlarni yoritishga harakat qilib sher orqali

ifoda etgan. Berdaq o‘zning sherlarini qo‘shiq qilib kuylab qo‘shiqlarida xalqni o‘z haqini talab etishga, ozodlik harakatlariga undagan.

Berdaqning barcha ijod namunalarida xalqning turmush sharoiti, o‘sha zamonning ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Shoir o‘z asarlarida xalq boshidagi og‘ir ahvol, kambag‘allik, haqidagi qo‘shiqlari bilan xalqqa taskin berishga harakat qilgan. Manashu qo‘shiqqa aylangan sheridan to‘rt misrani misol sifatida qarasak.

Berdaq der so‘zimni aytib ketayin
Boqgin xo‘r umrin netayin
Bo‘lmasa dunyoni harob etayin
Qani, menga Israpildin surn ber

Misralari orqali shoir o‘z qalbidagilarni ifodalagan. Berdaq yashashgan zamon ziddiyatli kurashlar zamoni bo‘lgan. Bu to‘g‘risida faqatgina qo‘shiqlarda emas ijodiy faoliyatidagi barcha asarlarida ko‘rish mumkin. ‘‘Ko‘rindi’’, ‘‘Zamonda’’, ‘‘Panoh ber’’, ‘‘Oqibat’’, ‘‘Davru davron’’, ‘‘Ko‘zim’’, ‘‘Bo‘lmadi’’, ‘‘ Ayrimoq’’ va boshqa qo‘lyozmalar ham yozilgan.

Berdaqning hayot yo‘li va ijodi haqida qancha ko‘p so‘zlasakda oz. Shuning uchun yoshlarimiz o‘rtasida Berdoqning ijodini keng targ‘ib qilish va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va yosh avlodga yoshlarimizga xalqimizga ommaga tanishtirish lozim. Mashhur adabiyot va san’at arbobi xalq shoirining porloq xotirasi hurmatiga Nukus va boshqa shaharlar kuchalariga, bog‘ hiyobonlarga, kinoteatrlarga Berdoqning nomi berilgan. Mamlakatimizdagi nufuzli teatrlardan biri Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri nafaqat o‘zimizda balkim chet ellarda ham mashhur.

Berdoq xalqning o‘tli dardiga malham bo‘luvchi harorat bag‘ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bo‘lgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o‘z sherlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxoni bilim olish uchun diqqatini qaratish kerak bo‘lgan nutalarga alohida urg‘u berib asarlar sherlar yozgan.

Albatta, yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ammo gap ularnin soni emas, balki salmog‘ida ekanligini ta’kidlash lozim. Umuman, Berdoq she’riyati

adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Binobarin, uning ibratli hayoti, sheriyati va asarlaridagi ma’naviy merosi bugungi kunda yoshlar qalbida yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishda, barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar biz ajdodlarimiz boy tarixiy ma’naviy merosini o‘rgansak turli xil xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qati’yat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham kirib kelishi mumkin. Buning uchun adiblarimiz ijodlaridan Berdoq hayoti va ijodidagi sherlari yoshlarimizni o‘zining sherlari dostonlaridagi bunyodkorlik ilimga intilish xalqga xizmat qilish g‘oyalari bilan o‘zining girdobiga tortib ketishi uchun qaraqolpoq tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilsak ko‘p tilli xalqimiz yoshlari o‘qib o‘rganishadi.

Berdoq sherlarida ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyati hamda vatanparvarlik kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Yoshlarni bugungi internet xurijidan asrash uchun Berdoq kabi xalqparvar fidoiy adiblarning asralarini sherlarni turli tillardagi badiy kitoblarni ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tiliga tarjima qilish kerak. Yoshlarni faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudbin kimsalarga aylanib qolishini oldini olish maqsadida adabiyot, san’at, sport bilan band qilish kerak.

Qoraqalpoq xalqining serqira ijodkorlaridan biri Berdaq ijodi va hayot yo‘lini chuqur o‘rganib barcha insoniy fazilatlarni yanada mustahkamlashimiz, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining talaba yoshlari o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim. Berdoq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdoqning sherlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalari tayyorlab borilmoqda hamda kino filimlar yaratish orqali ijodkorning faoliyatini Toshkent pediatriya tibbiyot institutida keng ommaga tanshtrish ishlari davom etmoqda. O‘ylaymizkiy ijodkorning barcha sherlari dostonlari doimo xalqimizning yuragidan joy olib kelmoqda, zamonlar osha bizning targ‘ibotlarimiz davomiyligini Berdaq asarlari o‘zida saqlanib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo‘llanma.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020.

3. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.M.Mirziyoyev.

4. B.Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti. T., 1986.

5. www.Prezidenti.uz

6. www.gazeta.uz

# IDROKNING TURLI XIL BUZULISH SHAKLLARI

**O‘rolova Nigora Rustam qizi**
Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy psixologiya
320-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada idrok haqida tushuncha idrokning turli xil buzulish shakllari haqida ma’lumot berilgan**.**

**Kalit so‘zlar:** Idrok, illuziya, psixik jarayonlar, nerv sistemasi, gollutsinatsiya, sezgi.

Idrok tushunchasi lotin tilida «regserIo» qabul qilish, idrok deb nomlanadi, uning yuqori bosqichi esa «appersensiya» (lotincha regseryo idrok, qabul qilish) deyiladi.Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo‘lib hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar bir davrning o‘zida namoyon bo‘ladi, aks ettirishda ishtirok qiladi. Idrok yoki qabul qilish shaxsning ob’yektiv reallikdagi voqea-xodisalarning va predmetlarni aks ettirishdagi murakkablik, yaxlitlik va to‘laligi bilan sezgirdan farq qiluvchi ruhiy jarayondir. Sezgilar yordamida predmetlarning, narsa va hodisalarning ayrim tomonlari, ba’zi xususiyatlari bilib olinadi. Har bir predmet yoki voqea-hodisada ayrim belgilardan tashqari turlicha sifatlar va xususiyatlarning yaxlit kompleksi mujassam bo‘ladiki, odam ularni butun formada, yaxlit tarzda aks ettiradi. Shuning uchun ham sezgilarga qaraganda idrok voqelikni aks ettirishning murakkab tomonidir.

Idrok jarayonida narsalar obrazini to‘la aks ettrishining sababi shundaki, odam miyasida hayot davomida turli-tuman qo‘zg‘aluvchilar ta’siri tufayli juda ko‘p muvaqqat bog‘lanishlar vujudga kelgan bo‘ladi. Tajribasiz odamda esa bunday xususiyat bo‘lmaydi, ya’ni u idrok qilayotgan narsaning tub mohiyatiga tushunib yetmaydi. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok kilsa, uni figura va fonda

idrok qiladi. Figura – shunday narsaki uni aniqlash, ajratish, ko‘rish, eshitish va tuyish mumkin, fon esa aksincha noaniqrok, yumshoqroq narsa bo‘lib aniq ob’yektni ajratishga yordam beradi.

Ba’zi hollarda narsalar noto‘g ‘ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Narsalarni bu tariqa noto‘g‘ri idrok qilishni illuziya deb ataladi. Masalan, agar biz , ko‘rsatkich va o‘rta barmog‘im izni chalishtirib, no‘xat yoki bironta dum aloq narsani chalishtirilgan ikkala barmog‘imizning uchi bilan bosib turib, ayni bir vaqtda aylantiraversak (biz no‘xatni aylantiraylik), barmoqlarimiz tagida bitta emas, balki ikki no‘xat bordek his qilamiz. Ana shu holda bir narsaning ikki bo‘lib sezilishini Aristotel (Arastu) illuziyasi deyiladi. Og‘irligi aynan teng, ammo kattaligi har xil bo‘lgan ikki buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi yengilroq, ikkinchisi og‘irroqdek tuyuladi. Metalldan ishlangan 1 kg tarozi toshi, 1 kg paxtadan og‘irroqdek his qilinadi.

Idrok qilib turgan shaxsning psixikasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar bilan tug‘iladigan tasodifiy illuziyalar ham bo‘ladi. Masalan, cho‘lda suvsagan kishi uzoqda yarqirab turgan sho‘rxok yerni ko‘l deb o‘ylashi (lekin bu illuziyani sahrodagi sarobdan farq qila bilish kerak) yoki o‘rmondagi to‘nka odamning ko‘ziga bironta yirtqich hayvonga o‘xshab ko‘rinishi va hokazo shu kabi illuziyalar jumlasidandir.Gap nutq sohasida ham illuziyalar ko‘p uchrab turishi ham m aga m a’lum. Bu xil illuziyalar shundan iboratki, birovning nutqidagi ayrim so‘zlar boshqa tovush tarkibidagi yoki boshqa bir ma’noda aytilgan so‘zdek eshitiladi. Bunday hollarda odamlar odatda «yaxshi eshitmay qoldim», «boshqacha tushunibman » deb gapiradilar. Illuziyani gollutsinatsiyadan farq qilish lozim. Illuziya shu onda sezgi organlarimizga ta ‘sir qilib turgan bir narsani yanglish, noto‘g‘ri idrok qilish bo‘lsa, gollutsinatsiya yo‘q narsalarni, tashqi ta ‘sirotsiz «idrok qilinishidir»: o‘rni tagida yo‘q narsaning ko‘zga bordek ko‘rinishi, yo‘q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo‘q narsalarning isi dimoqqa urilishi va boshqa shu kabilar gollutsinatsiya mahsulidir. Gollutsinatsiya shaxsning go‘yo biror narsani ko‘rgandek, eshitgandek, ushlagandek, bilgandek va boshqa shu kabi tasaw uridir, xolos. Gollutsinatsiya ko‘pincha kasaliikdan darak beruvchi alomatdir, u nerv sistemasi bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta’sirlanganda, nerv sistemasini buzadigan kasalliklar oqibatida ro‘y beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, idrok ham nerv sistemasi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, uning buzilishi illuziya ,gollutsinatsiya kabi koplab kasalliklarga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ramendik D.M. Upravlencheskaya psixologiya: Uchebnik. M., FORUM: INFRA-M, 2006
2. 2. Roik V.D. Professionalniy risk: osenka i upravleniye. M., „Ankil“ ,2004.
3. Soxibovna, M. G. (2022, August). THE ROLE OF LINVOCULTUREME IN THE STUDY OF NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF SPEECH UNITS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 3, pp. 48-52).
4. TILEUBAEVNA, A. R., QUATBAEVISH, Q. A., & JAMEXATOVNA, S. L. The Role of Computer Science at School and Improvement of Teaching Methodology (Method). *JournalNX*, *6*(11), 152-155.
5. Рахманова, Д. (2012). Тавалло-представитель эпохи джадидизма. *in Library*, *12*(3), 546-549.
6. Sidikova, G. S., & Ibrahimovich, T. A. (2021). FORMATION OF CHILDREN’S HEALTH CULTURE AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Conferencea*, 71-74.
7. Uzakova, L., & Usmonova, D. (2021). Comparative Study of Uzbek and English Speech Etiquette. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, *1*(12), 60-63.
8. Uzakova, L. (2021). O‘ZBEK VA INGLIZ NUTQIY ETIKETLARINING QIYOSIY TADQIQI. *Scientific progress*, *1*(3), 213-216.
9. Uzakova, L., & Usmonova, D. (2021). Comparative Study of Uzbek and English Speech Etiquette. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, *1*(12), 60-63.
10. Uzakova, L. (2021). O‘ZBEK VA INGLIZ NUTQIY ETIKETLARINING QIYOSIY TADQIQI. *Scientific progress*, *1*(3), 213-216.

11. Рахманова, Д. (2012). Тавалло-представитель эпохи джадидизма. *in Library*, *12*(3), 546-549.

12. Mirzakarimovna, Rakhmonova Dildora. "ISSUES OF RENEWAL OF POETIC FORM AND CREATIVE STYLE IN THE WORK OF JADIDIST TAVALLO." *E Conference Zone*. 2022.

13. Рахмонова, Д. М. (2022). ЖАДИД ИЖОДКОРИ ТАВАЛЛО АСАРЛАРИДА ПОЭТИК ШАКЛ ВА ИЖОДИЙ УСЛУБ ЯНГИЛАНИШИ МАСАЛАЛАРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, *1*(2), 62-66.

14. Rahmonova, D. Prayerfully and Uzbek national satire. *International Journal on Integrated Education*, *3*(1), 35-38.

# POMIDOR KUYASI BIOLOGIYASI, TARQALISHI, ZARARI VA QARSHI KURASH USULLARI

**Imomaliyev Erali Nurali o‘g‘li**
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Magistranti
**O‘rishaliyeva Nazokatoy Ikromjon qizi**
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Annotatsiya:**

Hozirgi kunda O‘zbekiston ichki bozorida oziq ovqat maxsulotlari orasida pomidor mevasining tobora qimmatlashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Buning sababi xalqimiz sevib istemol qiladigan pomidor mevasi turli zararkunanda va kasalliklar tufayli ushbu ekin hosildorligining keskin pasayib borayotganligidir.

**Kalit so‘zlar:** pomidor, kuya, imago, lichinka,tuxum, meva.

**Аннотация:**

В настоящее время на внутреннем рынке Узбекистана мы видим, что среди продуктов питания плоды томатов становятся все более дорогими. Это связано с тем, что плоды томатов, которые любят и потребляют наши люди, резко снижают урожайность этой культуры из-за различных вредителей и болезней.

**Ключевые слова:** помидор, мотыльку, имаго, личинки,яйцо, фрукты.

**Annotation:**

Currently, in the domestic market of Uzbekistan, we can see that among food products, tomato fruit is becoming more and more expensive. This is due to the fact that the tomato fruit, which our people love and consume, is sharply decreasing the yield of this crop due to various pests and diseases.

**Keywords:** tomato, moth, imago, larva, egg, fruit.

**Kirish:** Pomidor kuyasi tangaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera) turkumi, o‘yiq qanotli kuyalar (Gelechidae) oilasiga mansub hasharot. Tuta absoluta – Pomidor kuyasini birinchi marta Meyrick, (1917) va Povolny, (1994) degan olimlar aniqlashgan va o‘rganishgan . Pomidor kuyasi pomidor o‘simligining ashaddiy kushandasi bo‘lib, ekinlarning mevasi va bargiga jiddiy zarar yetkazadi. Pomidor kuyasi pomidor o‘simligining ochiq va yopiq turdagi ekinzorlarida uchraydi. Yuqori reproduktiv samaradorlikka ega hasharot bo‘lganligi uchun lichinkasi ozuqa topmaguncha tinchlanmaydi.

**Biologiyasi:** Pomidor kuyasi (Tuta absoluta) ning tana uzunligi 7 mm, qanotlarini yoyilishi 8-12 mm. Pomidor va ituzumguldoshlar (Solanaceae) oilasining boshqa turlarini (kartoshka, baqlajon) zararlaydi. Bu tur juda ham yashovchan bo‘lib, agar ozuqa etarli bo‘lsa, lichinkalari diapau zaga ketmaydi. U yiliga 10-12 marta avlod berib rivojlanadi.

Tuxumi oval-silindr shaklli, rangi oqishdan sariqqacha, uzunligi 0,35 mm. Bir urg‘ochi zot 1 yilda hammasi bo‘lib 250-300 tagacha (o‘rtacha 260 ta) tuxum qo‘yadi. Odatda tuxum qo‘yilgandan keyin 4-7 kun o‘tgach undan lichinkasi (qurti) chiqadi. Pomidor kuyasi o‘simlikning barglariga - 73% , barg tomirchalari va poyalariga - 21% , gulkosabarglariga - 5% , Mevalariga - 1% tuxum qo‘yadi. Lichinkasi endi chiqqanida oqish-sarg‘ish tusli, uzunligi 0,5 mm, boshi qora (diagnostik belgi), keyin o‘sib, ikkinchi va to‘rtinchi yoshlarida nimrang yoki sarg‘ish-yashil tus oladi; 10-15 kun yashaydi va bu vaqtda to‘rtinchi yoshga o‘tadi. Yetilgan lichinkaning uzunligi 8-9 mm, u ipak o‘rab, tuproqqa tushadi va g‘umbaklanadi. G‘umbaklanishi tuproqda yoki o‘simlik qoldiqlari orasida, ba’zan zararlangan va o‘ralgan barglar ustida ipaksimon pilla ichida 10 kun davomida o‘tadi. Barglarda g‘ovak ichida ham g‘umbaklanishi mumkin. G‘umbagi och-qo‘ng‘ir tusli, uzunligi 6 mm atrofida. Urg‘ochi zotlari 10-15, erkagi 6-7 kun yashaydi. Uzunligi 5-7 mm, qanot yozganida 8-10 mm, tusi qo‘ng‘ir yoki kumushsimon, old qanotlarida xarakterli qora dog‘lari bor, mo‘ylovlari ipsimon ko‘rinishda.

**Tarqalishi:** Vatani Janubiy Amerika. Pomidor kuyasi Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Paragvay, Peru, Urugvay va Venesuelada katta

maydonlarda pomidorga ko‘p yillar davomida zarar etkazib kelgan va kelmoqda. Evropada pomidor ekinlarida kuya birinchi marta Ispaniyada 2006 yilda qayd etilgan va keyingi yillari boshqa mamlakatlarga tarqalib ketgan . Ispaniyada mamlakatga zararkunanda kirgan yili dalalarga 1 mavsumda 15 martagacha insektitsid purkalgan va har 1 gektarga 450 yevrogacha xarajat qilingan.

Internet ma’lumotiga ko‘ra (Asqar Axatov) Tuta absoluta 2010- yildan beri Rossiyada bor. Uning o‘choqlari Krasnodar o‘lkasi va Chechenistonda aniqlangan. Boshqa internet saytida kuya 2008-2010 yillarda Ukraina va Rossiyada (Kaliningrad oblasti va Krasnodar sh.) qayd etilganligi xabar qilingan. 2011 yilda kuya Belorussiyada karantin ob’ektlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Zarari:** Kapalagi kechalari uchadi, kunduzlari barglar orasida yashirinib o‘tiradi. Pomidor kuyasi o‘simlikni ham issiqxonalarda ham ochiq dalalarda, butun o‘suv davrida (ko‘chatlik davridan vegetatsiya oxirigacha) zararlaydi. Pomidor o‘simliklarining o‘suv nuqtasidagi kurtaklari, barglari, poyalari va mevalari hamda poyaning pastki qismi ya’ni ildiz bo‘g‘zini ham zararlaydi.

Ozuqa etarli bo‘lganda qurtlari diapauzaga kirmaydi va tinimsiz avlod beradi. Tullashlar orasida qurtlari barg va meva to‘qimalarining tashqarisiga vaqtincha chiqib turishlari mumkin. G‘ovaklar orqali o‘simlik to‘qimalariga har xil mikroorganizmlar, ko‘pincha zamburug‘lar kirib, barglar va mevalar chirishi va mog‘orlashiga olib keladi. Mevalar o‘suv davrida yoki saqlash paytida chirib ketadi. Kuya bilan kuchli zararlangan barglar to‘la nobud bo‘ladi. Kuya zararlangan pomidor o‘simliklarining hosildorligini 80-90 % ga pasaytirib, hosilni to‘la nobud qilishi mumkin. Zararlanish boshlangan kundan boshlab maydoni 1 ga bo‘lgan dalani kuya 2 haftada to‘la vayron qilishi mumkin.

Zararkunandani ertaroq aniqlash juda muhim shuning uchun pomidor ekilgan dalalarga feromon tutqichlarini o‘z vaqtida qo‘yish hosilni himoya qilishning eng muhim choralaridan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. SH.T,Xo‘jayev. O‘simliklarni Zararkunandalardan “Uyg‘unlashgan Ximoya Qilishning Zamonaviy Usul va Vositalari” Toshkent-2015yil.

2. M.T.Arslonoov. A.U.Sagdullayev.Sh.K.Aliyev.O.T.Xujayev. X.Z.Ablullayeva. “O‘simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish”

3. Azimov B., Hakimov R. Sabzavotkorning fevral yumushlari. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2011, №2, 5 b.

4. Geshtovt N.YU. Entomopatogenniye gribi (biotexnologicheskiye aspekti). -Almati, 2002, -288 s.

5. Lyan E., Niyazov M. Issiqxonalarda sabzavot etishtirish dasturxonimiz to‘kinligi garovi.//O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2011, №12, 3 b.

6. Norbekov O. Loyiha imzolandi.//O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2011, №10

7. Evlaxova A.A. Perspektivi ispolzovaniya entomopatogennix gribov v biologicheskoy borbe s vrednimi nasekomimi. // Mikologiya i fitopatologiya,1971, T.

8. Ruzmetov P.Biologo-toksikologicheskoe obosno-vanie borbi protiv sovok na tomatax. Tashkent, 1994 g.

1. B.Q.Muxammadiev, M.B.Qurbonmuratova, Pomidor Kuyasi - Tuta Absoluta Toshkent 2017

Caytlar:

www.cips.msu.edu /Landislab/www.msu.edu.

www.toucansolutions.com/pat/insects.html.

www.toucansolutions.com/pat/insects.html

# PSIXOLOGIYANING IJTIMOIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI

**Temirov O‘tkir Sodiq o‘g‘li**
Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
amaliy psixologiya 320-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiyaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va roli haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik bilimlar, inson shaxsi,shaxslararo munosabatlar, ta’lim va tarbiya.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo‘lishidan qat’iy nazar, ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e ‘tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda kelajak avlodni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda o‘qituvchilaming o‘rni benihoyat oshgan. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchidan oliy o‘quv yurtida o‘z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari talabalar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlami fárqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to‘g‘ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o‘rganish talab etilmoqda. Chunki bu — ta’lim va tarbiya sirlarini mukammal egallaydigan o‘qituvchiIar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ko‘hna va hamisha navqiron mamlakatimiz uchun ijtimoiy taraqqiyot psixologik nuqtai nazardan idrok qilinsa, mantiqiy tahlil etilsa, xalqimizning etnopsixologik bilimlardan ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanganligi, harbiy yurishlarda jangchilarga psixologik ta ‘sir o‘tkazganligi, ularda ishonch va e ‘tiqod hissi uyg‘otganligi, muomalaning veibal va noverbal ko‘rinishlarini amaliyotda qo‘llanganligi, o‘rta asrlaming Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino singan zabardast olimlarining ijodiy mahsuüaridan tortib, to XX asming 30-yillari oralig‘ida ilmiy tadqiqotlar qilinganligi bu isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir.0 ‘zbekiston oliy

maktablarida psixologiya o‘quv fani sifatida 1928-yildan o‘qitib kelinmoqda. (Xuddi shu davrda LS.Vigotskiy 0 ‘rta Osiyoda, 0 ‘zbekistonda ommaviy m a’ruzalar o‘qiganligi m azkur jarayonni tezlashtirgan asosiy omil bo‘lganligiga hech shak-shubha yo‘q).

Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib, psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng m uhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin.Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sosiologiya va boshqa ijtimoiy- gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson faoliyat ko‘rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlaming turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko‘ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo‘lishlari talab etiladi.

Keyingi yillarda psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, psixologiyaning ijtimoiy hayotimizda tutgan o‘rni beqiyos va hozirda u kirib bormagan soha qolmadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. T., 1994.
2. Gamezo M.V, Domashenko l.A. „Atlaspo psixologii“. M., 1986.
3. Uzakova, L. (2021). O‘ZBEK VA INGLIZ NUTQIY ETIKETLARINING QIYOSIY TADQIQI. *Scientific progress*, *1*(3), 213-216.
4. Tuychiyev, A. I. (2022). O ‘QUVCHILARDA INTIZOMIY KO ‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, *3*(2), 896-901.

5. Sidikova, G. S., & Ibrahimovich, T. A. (2021). FORMATION OF CHILDREN’S HEALTH CULTURE AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Conferencea*, 71-74.

6. Рахманова, Д. (2012). Тавалло-представитель эпохи джадидизма. *in Library*, *12*(3), 546-549.

7. Mirzakarimovna, Rakhmonova Dildora. "ISSUES OF RENEWAL OF POETIC FORM AND CREATIVE STYLE IN THE WORK OF JADIDIST TAVALLO." *E Conference Zone*. 2022.

8. Рахмонова, Д. М. (2022). ЖАДИД ИЖОДКОРИ ТАВАЛЛО АСАРЛАРИДА ПОЭТИК ШАКЛ ВА ИЖОДИЙ УСЛУБ ЯНГИЛАНИШИ МАСАЛАЛАРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, *1*(2), 62-66.

# МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИ ТАРКИБИДА КЎЧМАС МУЛКДАН ОЛИНАДИГАН МАҲАЛЛИЙ СОЛИҚЛАР

**Вафоева Манзура Рейимбергеновна**
Тошкент ирригация кишлок хужалигини механизациялаштириш мухандислари институти Миллий тадкикот университети

**Аннотация**

Мақолада Маҳаллий бюджет даромадлари таркибида кўчмас мулкдан олинадиган маҳаллий солиқлар асосий даромад манбаини ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига мувофиқ, мол-мулк фуқаролик ҳуқуқлари объекти сифатида кўчмас мулкка ва кўчар мулкка бўлиниши.

**Калит сўзлар:** Кўчмас мулк, Бозор қиймати, кўчмас мулкни баҳолаш, кўчмас мулкни баҳолашнинг даромадлар усули алгоритми, бозор қиймати, харажат усули ва унинг хусусиятлари.

## Кириш

Кўчмас мулк жумласига ер участкалари, ер ости бойликлари, бинолар, иншоотлар, кўп йиллик дов-дарахтлар ва ер билан узвий боғланган бошқа мол-мулк, яъни белгиланган мақсадига номутаносиб зарар етказмаган ҳолда жойини ўзгартириш мумкин бўлмайдиган объектлар киради. Қонунда бошқа мол-мулк ҳам кўчмас мол-мулк қаторига киритилиши мумкин.

Қонунчиликка кўра кўчмас мулклар учта гурухга бўлинади: турар жойлар, ер ва нотурар жойлар. Хар бири ўзининг меъёрий-хуқуқий базасига эгадир (1.5-расм).




**1-расм. Кўчмас мулкнинг асосий турлари[1]**

Мулк объетларини солиқ солиш мақсадида унинг бозор қийматини аниқлашдан аввал, мулкни баҳолаш ва баҳолаш жараёни ўзи нима ҳамда амалиётда қандай баҳолаш методлари қўлланилишини ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Шу мақсадда, баҳолаш фаолияти хақида гапирар эканмиз, биз аввало баҳолаш фаолиятининг ўзини ва шу билан биргаликда унда қўлланиладиган атамалар ҳамда баҳолаш усулларнининг хусусиятлари хақида тўхталиб ўтамиз.

Баҳолаш фаолиятида "қиймат" ва "нарх" каби тушунчалар асосий ҳисобланади. Қиймат - бу ҳаридор қандайдир буюм ёки объектга алмашиш учун тайёр турган пул ёхуд пул эквиваленти ёки бу гипотетик харидор баҳоланадиган қийматга қанча тўлаш учун тайёр бўлишининг ўлчови. Нарх эса - бу аввалги битимларда шунга ўхшаш объектларни ҳарид қилиш учун қанча сарфланганлигини акс эттирувчи тарихий факт. "Нарх" атамаси, шунингдек, сотувчи сўрайдиган нархни белгилашда ҳам ишлатилади[2]

## 1.Харажат усули ва унинг хусусиятлари

Харажат усули –баҳоланаётган бино ва иншоотларнинг эскириши ҳамда ернинг қийматини ҳисобга олган ҳолда кўчмас мулкнинг баҳоси харажатлар ҳисоб китобига асосан аниқланади (Каминский, 2005).

Харажатлар усулининг асосий тамойили шундан иборатки, сотиб олувчи томонидан кўчмас мулк объети учун кўп пул тўламаслик, яъни муайян муддатларда ер ва қурилиши биноси қанча миқдорда сотиб олинишидир.

Харажатлар усули ер учусткасини яхшилаш ёки унумдорлигини оширишда қўлланилмайди, чунки ерни ташкил қилиш учун хеч қандай харажат қилинмаган. Бироқ харажатлар усули элементларидан ер устига қурилиши амалга оширилган бўлса қўллаш мумкин.

**Солиштириш (таққослаш) усули методикаси**

Солиштириш (таққослаш) усули – кўчмас мулк баҳоси бозордаги сотувлар тўғрисидаги маълумотларасосида, худди шундай объектларни сотиш баҳосини солиштириш орқали аниқланади.

Солиштириш усулида кўчмас мулкни баҳолаш учта асосий тамойиллар асосида амалга оширилади: талаб ва таклиф, ўрнини қоплаш ва сармоя. Ушбу тамойиллар асосида кўчмас мулкнинг баҳоси турли миқдорий ва сифатли методлар, бозордаги қиёсий маълумотлар ҳамда элементларга кўра объектнинг қиймати аниқланади.

Солиштириш усули орқали мулкни баҳолашда асосий тамойил ўрнини қоплаш ҳисобланиб, унда бозордаги бир нечта объектларнинг ўхшашлиги, инвестор томонидан ушбу обьектни сотиб олиши ва фойдаланиш самарадорлиги учун кўп миқдорда пул тўламаслиги мухим ҳисобланади.

**Хулоса ва таклифлар.**

Хулоса қилиш мумкинки, маҳаллий бюджетлар молиявий имкониятларини кенгайтириш, уларнинг мунтазам ва ишончли солиқ солиш базасини шакллантириш, солиққа тортишни янада ихчамлаштириш мақсадида, мол-мулк ва ер солиқларини бирлаштириб, босқичма – босқич кўчмас мулк солиғига ўтиш лозим.

Халқаро амалиётда кенг кўлланиладиган кўчмас мулкларни бозор қийматини баҳолашнинг харажат, даромад ва тақослаш усулларини амалиётга қўллаш ҳамда мулкларни бозор баҳосини хар уч йилда кўриб чиқиш тизимини жорий этиш лозим.

Кадастр органлари томонидан кўчмас мулкни бозор баҳосида баҳолаш бўйича норматив-ҳуқуқий хужжатларнинг йўқлиги сабабли баҳолаш бўйича ягона методикани ишлаб чиқиш лозим.

**Адабиётлар:**

**1.** Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси

**2.** Алимёёов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б

**3.** Тэпман Л.Н. Оценка недвижимости. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.-133 с

**4.** Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б

**5.** Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б

**6.** Тўйчиев Н.Ж., Мирхошимов А.М., Плахтий К.А. Кўчмас мулкни баҳолаш асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Адолат, 2000, - 280 б.

# INVESTMENT ATTRACTION THROUGH SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT OF WAYS IN NAMANGAN REGION ON THE SUBJECT OF THESIS

**Abdumutalliyev Abdulaxad Abdusamad o‘g‘li**
Assistant of Namangan Institute of Engineering and Technology

**Abstract:** This in thesis to Namangan region investment attraction to do through small business and private entrepreneurship in development of ways about data given.

**Key words:** economy, investment, small business and private entrepreneurship, development, statistics.

**Induction.** Whole in the world the economy motivator power as small business and private entrepreneurship field main place take over is coming of the world developed countries France, Italy, Japan, Germany, USA in the states Gross Internal In the product small business and private entrepreneurship share is 50-60 percent around is this indicator is 2020 in Uzbekistan and 53.9 percent organize is doing small business and private entrepreneurship share more in development of investments place is incomparable. Our country to the regions being separated investment the amount how being distributed statistics learning important

**Main text.** Commerce banks by to entrepreneurs being separated loans volume increased. Such practical measures own the result is giving Small business our country gross internal of the product about 60 percent of the industry products of size from three one, a village farm 98 percent of products, investments half is providing. This only Namangan region in the example seeing coming out if, 2021 - year January-December months new organize found small enterprise and micro firms regions according to the most many in the city of Namangan - 1589, Chust district - 434, Pop district 400, Namangan district - 392, Uchqorgon in the district - 386, Uychi in the district - 367 organize reached. The lowest indicator New York 268 in the district

organized. January-December 2021 small entrepreneurship of subjects by number (per 1000 inhabitants, in units). regions in the section the most a lot indicator is 12.9 in Namangan city, 12.8 in Namangan district, Mingbulok 11.4 in the district, Chust 10.5 in the district, 9.1 in the Chortoq district, Uchqorgon 9.0 units in the district organize did This the indicator is 7.8 and in the Pop district Torakorgon 7.7 units in the district organize reached as low as remains in Namangan region small business and private entrepreneurship development : 2022 in January - March small entrepreneurship of subjects Gross Internal In the product share is 63.1 % organized. Small business of subjects number is 10.0 units per 1000 inhabitants organized. Activity walking small enterprise and micro firms the number is 29 thousand 526 enough 2022 year 1379 new ones in January - March small enterprise and micro -firms ( farmer and farmer without farms ) organization done Initial three month results according to small entrepreneurship subjects by main to capital directed investments by 19.1 % increased to 2 trillion. 89 billion soums organized. Industry work release volume 1 trillion. 275.1 billion soums organized. Export volume is 50.3 million dollars, import is 127.2 million dollars. Highlight this is necessary projects work on the way out economic of development growth points - " drivers". determination the way with region of possibilities maximum level use in order to region and district cities strong and weak sides studied such drivers in the province one textile industry is his technological development level external in the market buyer was high good quality ready products work release enable is giving Leader foreign brands under ready clothes are yesterday work release for foreign brands with connections installation through for export for sale textile of products addition value to increase separately accent given - in the region rope again work level by 95 % increase planned. In the future internal brands Create and them external to markets before push measures on complex done is increased.

**Conclusion.** Small business country economy adding contribution increase, small industry zones creation, investment environment and competition environment improvement, small business with public-private partnership within state purchases size expansion, large and small enterprises in the middle mutually beneficial cooperation strengthening, innovation can processes entrepreneurship subjects

attraction to do through let’s see we say maybe an investment attraction any made field without development won’t stay Local and foreign investments wide attraction to do for in Namangan region investment environment more improve and attractiveness increase through field and regions economy our promotion.

**References:**

1. Uzbekistan Republic President ‘s order of April 29, 2019 "To the economy of the Republic straight away foreign investments attraction to do mechanism more improvement measures Decision No. PQ-4300 on

2. Baikhanov B. T. " Uzbekistan in the economy investments cross-industry of distribution econometric modeling methodology improvement ". Economy sciences PhD ( DSc ) thesis abstract. Tashkent - 2019. - 76 p

3. Uzbekistan Republic " Uzbekistan Republic for 2021-2023 intended Investment program done increase measures on" (No. PQ-4937. 28.12.2020) Decision. // www.lex.uz

4. Uzbekistan " Investments " of the Republic and investment activity on" (No. O‘RQ-598 25.12.2019) Law.// www.lex.uz

5. www.namstat.uz

# QASHSHOQLIKNING GLABAL O‘ZGARISH TRENDI

**Ilhomjonov Jahongir Alisher o‘g‘li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: jahongirilhomjonov165@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezis dunyo miqyosida qoshshoqlik va uning turlari o‘zgarib borish trendlari ko‘rsatilgan va faktlar bilan yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qashshoqlik, mutloq qashshoqlik, nisbiy qashshoqlik, qashshoqlik chegarasi.

## THE TREND OF GLOBAL CHANGE OF POVERTY

**Abstract:** this thesis shows the trends of the change of the carp and its species on a global scale and is covered with facts.

**Key words**: poverty, extreme poverty, relative poverty, poverty line.

Global qashshoqlikni kamaytirish Mingyillik rivojlanish maqsadlarining (MRM) asosiy maqsadi edi. MRMning maqsadi 1990-2015 yillar oralig‘ida mutloq qashshoqlikda yashovchi odamlar sonini ikki baravar kamaytirish edi. Global miqyosda bu muddatdan uch yil oldin, ya’ni 2012 yilda erishildi. Qashshoqlikka barham berish hozir asosiy o‘rinni egallaydi. 2015-yilda boshlangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM); uning 17 maqsadidan birinchisi "2030 yilgacha qashshoqlikga barham berish". Mutloq qashshoqlik bo‘yicha global taraqqiyotni kuzatish dunyo ushbu maqsadga qanchalik yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

2010-yilda hisob-kitoblarga ko‘ra, 1,1 milliard odam mutloq qashshoqlik chegarasida yashagan - o‘sha paytdagi dunyo aholisining 16 foizi.

2017-yilda (Jahon banki tomonidan global hisob-kitoblar e’lon qilingan eng so‘nggi yil) 714 million kishi mutloq qashshoqlikda yashadi - bu dunyo aholisining 9 foizini tashkil qiladi. Joriy hisob-kitoblarga ko‘ra, 2019-yilda mutloq qashshoqlik pasayishda davom etgan, 2019-yilda 690 million kishi mutloq qashshoqlikda yashagan.

Qashshoqlik belgilangan qiymat (mutlaq qashshoqlik) yoki aholining qolgan qismiga nisbatan qiymat (nisbiy qashshoqlik) bilan belgilanishi mumkin. Mutlaq qashshoqlik kambag‘allik chegarasi deb nomlanuvchi asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan minimal pul miqdori bilan o‘lchanadi. Agar odamning daromadi, xarajatlari yoki boyligi ushbu chegaradan past bo‘lsa, qashshoqlikda yashagan hisoblanadi. Aksincha, nisbiy qashshoqlik boshqalarga nisbatan aniqlanadi: agar uning daromadlari, xarajatlari yoki boyligi aholining qolgan qismining o‘rtacha darajasidan sezilarli darajada past bo‘lsa, odam qashshoqlikda bo‘ladi

1-shakl[10]




Qashshoqlik belgilangan qiymat (mutlaq qashshoqlik) yoki aholining qolgan qismiga nisbatan qiymat (nisbiy qashshoqlik) bilan belgilanishi mumkin. Mutlaq qashshoqlik kambag‘allik chegarasi deb nomlanuvchi asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan minimal pul miqdori bilan o‘lchanadi. Agar odamning daromadi, xarajatlari yoki boyligi ushbu chegaradan past bo‘lsa, qashshoqlikda yashagan hisoblanadi. Aksincha, nisbiy qashshoqlik boshqalarga nisbatan aniqlanadi: agar uning

[10] https://devinit.org/resources/poverty-trends-global-regional-and-nationa.

daromadlari, xarajatlari yoki boyligi aholining qolgan qismining o‘rtacha darajasidan sezilarli darajada past bo‘lsa, odam qashshoqlikda bo‘ladi.

Qashshoqlikni o‘lchashning xalqaro standarti mutloq qashshoqlik chegarasi bo‘lib, mutlaq qashshoqlik chegarasi kuniga bir kishi uchun 1,90 AQSh dollariga teng . Mutloq qashshoqlik chegarasi eng asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan minimal daromad yoki xarajatlar sifatida qabul qilinadi. Ko‘pchilik mutloq qashshoqlik chegarasi juda past ekanligini ta’kidlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori asosiy ehtiyojlar xarajatlarini aks ettiruvchi yana ikkita qashshoqlik chegarasi xalqaro miqyosda ham qo‘llaniladi: bir kishi uchun kuniga 3,20 AQSh dollari va 5,50 AQSh dollari. Mamlakatlar, shuningdek, ushbu mamlakatdagi o‘rtacha daromadlarga nisbatan qashshoqlik qanday ko‘rinishini aks ettirish uchun o‘zlarining milliy qashshoqlik chegaralarini qabul qiladilar.

1,90 dollarlik mutloq qashshoqlik chegarasi 2011 yilda xarid qobiliyati pariteti (PPP) valyuta konvertatsiyasidan foydalanadigan mamlakatlarda standartlashtirilgan. PPP konvertatsiyasi valyutaning real sotib olish qobiliyatini aks ettiradi, shuning uchun 1,90 dollarlik chiziq qiymati tovarlar va xizmatlarning bir xil mahalliy qiymatini aks ettiradi. turli mamlakatlarda turli vaqtlarda.

Xalqaro qashshoqlik milliy uy xo‘jaliklari so‘rovlaridan olingan ma’lumotlar yordamida o‘lchanadi, ular aholi daromadlari va/yoki xarajatlari ma’lumotlarini qamrab oladi. Jahon bankining PovcalNet qashshoqlik haqidagi global ma’lumotlar ombori 1981–2019 yillar oralig‘ida 168 ta iqtisod uchun ikki milliondan ortiq uy xo‘jaliklari so‘rovlari ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi. PovcalNet va milliy manbalardan olingan ma’lumotlar xalqaro, mintaqaviy va milliy qashshoqlik choralarini ishlab chiqish va vaqt o‘tishi bilan qashshoqlikni kuzatish uchun ishlatiladi; ammo, uy xo‘jaliklari so‘rovlarida ko‘pincha etishmayotgan odamlar, uy xo‘jaliklari ichida taqsimlash imkonsizligi va ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish uchun mavjud bo‘lish o‘rtasidagi vaqt kechikishi tufayli u cheklanganligicha qolmoqda, bu yillar davom etishi mumkin.

2-shaklda 3,20 va 5,50 dollarlik qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydigan odamlar soni 2010 yildan beri pasayib bormoqda va pasayishda davom etishi taxmin

qilinmoqda, ammo 2026 yilda butun dunyo bo‘ylab deyarli 3 milliard odam kuniga 5,50 dollardan kam daromadga ega bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Dunyo aholisining beshdan bir qismidan ko‘prog‘i 3,20 dollarlik qashshoqlik chegarasi ostida qolmoqda va deyarli yarmi 5,50 dollarlik qashshoqlik chegarasidan past.

2-shakl[11]




2010 va 2019 yillar oralig‘ida kuniga 3,20 dollardan kam daromad bilan yashaydigan odamlarning global ulushi 35 foizdan 23 foizga kamaydi, odamlar soni esa 671 millionga kamaydi. Biroq, bu raqam 2019 va 2020 yillar orasida taxminan 95 millionga oshgani taxmin qilinmoqda, 2020 va 2021 yillar orasida yana 80 millionga kamaygan, 2019 va 2021 yillar orasida sof o‘sish 15 million atrofida. 2021 yil holatiga ko‘ra, dunyo aholisining to‘rtdan bir qismi (1,8 milliard kishi) kuniga 3,20 dollardan pastroq kun kechirmoqda.

Shunga qaramay, 2026 yilga bo‘lgan bu prognozlarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak. Ayni paytda aholining deyarli yarmi kuniga 5,50 dollardan kam daromad

[11] https://data.worldbank.org

bilan yashayotganligi sababli, kelgusi yillarda ushbu guruhga ta’sir qiladigan tajriba va voqealar juda xilma-xildir.

3- shakl[12]. Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholi sonining o‘zgarishi (million) va o‘ta qashshoqlikda yashovchi aholi ulushi (2010–2021)




5,50 dollarlik qashshoqlik chegarasiga qaraganda, 2010-2019 yillar orasida qashshoqlikda yashayotganlarning global ulushi 54 foizdan 42 foizga, odamlar soni esa 3,7 milliarddan 3,2 milliardga kamaydi. Biroq, pandemiya ta’siri 2019 yildan 2020 yilgacha bu ko‘rsatkichni 106 millionga oshirishi kutilmoqda, 2020 va 2021 yillar orasida yana 64 millionga kamayishi, natijada 2019 va 2021 yillarda 41 millionga aniq o‘sish bo‘ladi. 2021-yilda dunyo aholisining taxminan beshdan ikki qismi (42%) kuniga 5,50 dollardan kam pul bilan yashagan.

Odamlarni mutloq qashshoqlik chegarasidan (1,90 AQSh dollari) oshib ketishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, yuqori qashshoqlik chegaralariga nisbatan sekinroq o‘sish ko‘p odamlar hali ham mutloq qashshoqlik darajasiga tushib qolish xavfi borligini va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun ko‘proq sa’y-harakatlar zarurligini ko‘rsatadi. eng kambag‘al odamlar juda oddiy darajadan yuqori. XVJning so‘nggi o‘sish hisob-kitoblariga ko‘ra, 2026 yilga borib, qashshoqlik

[12] Jahon banki PovcalNet va XVFning Jahon iqtisodiy istiqboliga asoslangan rivojlanish tashabbuslari

chegarasi 5,50 dollardan past bo‘lgan uch milliard odam va kuniga 3,20 dollardan kam bo‘lgan 1,5 milliard odam qoladi.

Jadvalning pastki chap burchagida O‘zbekistonda mutloq qashshoqlikda yashovchi aholi ulushi 21 foizga (30 foizdan 9 foizga) kamaydi: 5,4 million kishi endi qashshoqlikda uzoqroq yashaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. www.devinit.org
2. www.worldbank.org
3. Jahon banki PovcalNet va XVFning Jahon iqtisodiy istiqboliga asoslangan rivojlanish tashabbuslari markasi.
4. www.investopedia.com
5. www.un.org

# TALABA YOSHLARNING ILMIY VA MA’NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA BERDAQ IJODINING AHAMIYATI

**Xoliqova Gullola Yoqub qizi**
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi
Email:xoliqovagullola0529@gmail.com

**Annotatsiya:** Qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri Berdaq (Berdimurod) Qarg‘aboy o‘g‘lining Sharq madaniyati va adabiyotini rivojlantirishga kelajak avlodni Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirish ishiga qo‘shgan bebaho hissasini hisobga olib, shuningdek uning adabiy merosini xalqimiz o‘rtasida yanada keng targ‘ib qilish maqsadida bugungi ilmiy maqolamizni uning ijodidagi asosiy g‘oyani ochib berish, qolaversa, “Umrim” she’rini yanada yoritib berish uchun yozdik.

**Аннотатция:** Принимая во внимание неоценимый вклад сына Бердака (Бердымурада) Каргабоя, одного из основоположников каракалпакской литературы, в развитие восточной культуры и литературы, в дело воспитания подрастающего поколения в духе любви и верности Родина, народ, и развитие дружеских отношений между разными народами, и в целях дальнейшей пропаганды его литературного наследия среди нашего народа, мы написали сегодняшнюю научную статью, чтобы раскрыть основную мысль его творчества, а также пролить больше света на поэму умрим.

**Annotation:** Taking into account the invaluable contribution of the son of Berdaq (Berdimurad) Kargaboy, one of the founders of Karakalpak literature, to the development of Eastern culture and literature, to the work of educating the next generation in the spirit of love and loyalty to the Motherland, the people, and the development of friendly relations between different peoples , and in order to further promote his literary heritage among our people, we wrote today’s scientific article to reveal the main idea of his work, and also to shed more light on the poem umrim.

**Kalit so‘zlar:** ma’rifat, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, jamiyat, tamaddun, demokratik, ijtimoiy tengsizlik, muarrix.

**Ключевие слова:** просвещение, социально-экономическая ситуация, общество, цивилизация, демократия, социальное неравенство, историк.

**Keywords:** enlightenment, socio-economic situation, society, civilization, democratic, social inequality, historian.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik va yon-atrofdagi voqealarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quydagi so‘zlarni takidflagan “Adabiyotga e’tibor ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” asarida shunday ta’kidlaydi: “Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug‘ bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o‘zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so‘zi, chuqur ma’noli asarlariga ishonch, hurmat-e’tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatib turibdi”. Darvoqe, ijodkor olam va odam haqida avvalgidan farqli o‘laroq, sog‘lom fikrlash, ya’ni adabiyot nuqtai nazaridan ko‘proq bilishga intiladi. Natijada olamni, odamni, ularning tuyg‘ularini turlicha ifodalaydigan badiiy asarlar yaratish bugunning dolzarb vazifasiga aylandi. Istiqlol adabiyotida tasvirlanayotgan inson o‘zining bashariyat, Vatan, el-yurt oldidagi mas’uliyatini chuqur his etgan holda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, xalq hayotidagi istiqbolli davr adabiyoti yuqori bosqichga ko‘tarildi, uning mazmun va shakli yangilandi hamda boyidi. Har bir millatning o‘z ma’naviy qadriyatlari va milliy g‘ururiga aylangan allomalari bor. Navoiy, Pushkin, Abay, Mahtumquli, To‘xtag‘ul va Berdaq siymolarida dunyo xalqlari o‘zbek, rus, qozoq, turkman, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlarini ko‘z o‘ngiga keltiradi.

Berdimurod haqning quli

Sahroning sariq bulbuli. deb kuylagan shoir Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li hozirgi Mo‘ynoq tumanining Amudaryo Orolga tutashtirgan irmoqlar sohilidagi oddiy qoraqalpoq oilasida 1827-yil 27-noyabrda tavallud topgan.

Berdaq ijodini o‘ragnar ekanmiz uning o‘qib izlanish jarayonida o‘z xalqining og‘ir turmush tarzi bilan tanishib chiqasiz, og‘ir vaziyatda turmish tarzida ham o‘zini she’riyatdan ayro qilmaganligi, qalam tebratib katta jasorat ko‘rsatib qog‘ozga yozgani uning ijodida katta to‘siqlarga taslim bo‘lmaganidan dalolatdir. Berdaq o‘zining nochor axvolidan ta’lim olishni qiyinchilikda o‘zlashtirishi bugungi zamonamizning barcha ilm talab yoshu-qarilarimizga katta mahorat darslari desak ayni muddadir. Moddiy qiyinchilikda bo‘lsada tinimsiz izlanishdan to‘xtamasdan ilmga qiziqishini hech narsa bilan to‘xtata olmaganligi taxsinga sazovor. U yoshligidan boshlab she’r yozishni mashq qila boshladi. Xalq qo‘shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning she’rlaridan bahramand bo‘lish Berdaqning badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday ekan, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Sahro kengligi va bepoyonligini o‘z ijodida mujassam etgan Berdaq dunyoviy tamaddun ancha chetda turib, Arastu, Aflotun, Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli singari allomalar asarlaridan qanday saboq olgani ham ma’lum.

Navoiydan savod olib,
Fuzuliydan durlar sochib...
Mahtumqulini o‘qiganda,
So‘zin tavof qilar edim.

Berdaq demokratik shoir sifatida o‘z davridagi voqealar va ijtimoiy munosabatlarni ilg‘or mavqe’larda turib baholaydi. U o‘z asarlarida tenghuquqlilik, gumanizm, vatanparvarlik, g‘oyalarini tashviq etdi; ekspluotatorlqrni shavqatsizlik bilan fosh etdi; mazlumlarni himiya qildi; xonlar va podshohlar zulmiga qarshi bosh ko‘targan jasur kurashuvchilarni kuyladi.

Berdaq o‘z dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri jihatidan o‘z zamonasidan ancha oldinga ketgan edi. Ezilgan xalq ahvoli mavzusi Berdaq ijodiga singib ketgan. Umrim she’rida mehnatkashlarning og‘ir hayoti va o‘sha davrlardagi eng mudxish ijtimoiy ahvollarni ochib berishga harakat qildi. Uning ushbu she’ri barcha taraqqiyparvar insonlarning qalbiga hamohang deb topildi. Berdaq muhtojlik changalida qolgan, uqubat chekkan xalq uchun ezgulik va adolat baxsh etmoq yo‘lida

katta falsafiy umumlashmalar ham qildi. Ammo o‘z davrining farzandi sifatida o‘sha zamonda yashagan qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli taqazosiga ko‘ra xalqni inwilob orqalj ozodlikka erishuv yo‘lini ko‘rmadi va ko‘rolmas ham edi. U ijtimoiy tengsizlikka qarshi asov norozilik bildirish mavqe’ida turdi.

Kun sayin qayg‘u ziyoda,

Kulfatda o‘tdi umrim. degan satrlari ham bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Shoir o‘z umri timsolida butun jamiyatdagi qiyinchiliklarni berishga harakat qilgan. She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarningbaxtiyor yashashini orzu qiladi. Berdaq xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Alloxdan madad so‘raydi (Yordam ber), baxt haqida fikr yuritadi (Izladim), odil podshoni orzu qiladi ("Kerak"), baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda Berdaq tavalludining 170-yilligi keng nishonlandi (1998). Toshkent shahridagi xiyobonlardan biriga Berdaq nomi berildi va byusti o‘rnatildi. Shoir tugilgan joy - Bo‘zatovda ham byusti o‘rnatilgan (1998). Nukus shahrida Berdaqga haykal qo‘yilgan, musiqali drama teatri, ko‘cha va maktabga Berdaqning nomi berilgan. Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandidir. Qoraqalpog‘istondagi ko‘pgina maktablar, ko‘chalar, kinoteatrlar, kutubxonalar shoirning nomiga qo‘yilgan. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat mukofoti ta’sis etilgan. Bu mukofot badiiy adabiyot, san’at va me’morchilik sohasidagi eng yaxshi ishlarga beriladi. Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g‘oyalari hozirga mustaqillik sharoitida ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Har bir xalqning o‘zligini, milliy mavqei va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug‘ farzandi bo‘ladi. Ularning qoldirgan o‘lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o‘tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug‘ Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shundy ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlanadi. Har yili mamlakatimizda 27-noyabr kuni qoraqalpoq elining buyuk shoiri

Berdaqning tavallud ayyomi keng nishonlanadi. Xususan “Qoraqalpog‘istonning shahar va tumanlarida, ma’naviyat va ma’rifat maskanlarida berdaqxonlik tadbirlari o‘tkaziladi. Uning she’r va dostonlaridan namunalar o‘qiladi. Berdaq simosi hqiqiy ma’nod nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g‘urur va iftixori timsoliga aylangan” Islom Karimov. Lekin Berdaq xalqning o‘z baxti va ozodligi uchun kurashi adolatli kurash ekaniga qattiq ishonar, ana shu orzu qilgan baxtli baxtli zaminalar kelajagiga umid bog‘lar edi. Demokrat shoir, xalqning g‘amxo‘r kuychisi, hukmron sinflarni keskin fosh etgan, katta grajdanlik mardonavorligiga ega, yuksak iste’dod sohibi, taraqqiyparvar mutafakkir, bilimdon muarrix, o‘z davrining solnomachisi ulug‘ insonparvar va internatsionalist, mohir so‘z ustasi Berdaq qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri xalq qalbida mangu yashaydi. Uning ijodiy merosi ko‘p millatli yurtimiz madaniyatining bir bo‘g‘inidir. Xulosamiz o‘rnida shuni takidlaymizkiy Berdaqning asarlari va she’rlari bugunning kelishini intiqlik bilan kutgan zamonasining qiyinchiligiga sabir qilgan shaxs sifatida yoshlarimizga o‘rnak bo‘luvchi shaxs sifatida gavdalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hurriyat gazetasi. Prezident nutqi. 2018-yil 12-son
2. “Berdaq she’riyatidan” M. K. Nurmahammedov 45- bet
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq
4. O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti “BERDAQ SHE’RIYATIDAN” Mirtemir tarjimasi 1978 yil.
5. Tanglauli shig‘armalari, Nokis 1956-yil
6. Tanlangan she’rlar 1958-yil T;1976
7. Qurboboyev B, Berdaq va o‘zbek adabiyoti T;1986-y
8. Ma’naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent 1999-yil

# TURLI XIL TUPROQ ZONALARIDA TOKZORNI O‘G‘ITLASH

**Yursunova Shahnoza Erkinjon qizi**
Toshkent davlat agrar universiteti, magistr
E-mail: shakhnozlady@gmail.com

**Annotatsiya:** Tokdan yuqori va sifatli uzum hosilini olish uchun agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida, samarali olib borish muhim. Ayniqsa o‘g‘itlarni to‘g‘ri qo‘llash samaradorligi asosiy muhim omillardan biridir. Bu tuproq turlari, tuproqning tabiiy unumdorligi, uning namlanganligi, umumiy tok o‘stirish madaniyati va toklarning tuproqdan ozuqa moddalarini iste’mol qilish qobiliyatlarida muhim o‘rin egallaydi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘riq tuproq, bo‘z tuproq, qumli tuproq, komfast, torf.

## FERTILIZING THE VINEYARD IN DIFFERENT SOIL ZONES

**Abstract:** It is important to carry out agrotechnical activities in a timely manner and effectively to obtain a high and quality grape harvest from the vine. Especially the efficiency of correct application of fertilizers is one of the main important factors. It plays an important role in soil types, natural soil fertility, soil moisture, general viticultural culture, and the ability of vines to consume nutrients from the soil.

**Key words:** protected soil, gray soil, sandy soil, comfast, peat.

Hozirgi vaqtda dunyoning uzum yetishtiruvchi mamlakatlarida uzum hosildorligini oshirishda yangi navlarni yaratish va eng maqbul agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish masalalari dolzarb muammo hisoblanadi. So’nggi yillarda dunyo qishloq xo’jaligining muhim tarmog’i bo’lgan uzumchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida uzumning istiqbolli urug’siz navlarini chiqarish, ularning hosildorligi va sifatini oshirish, quritilgan mahsulot (mayiz) olish uchun eng yaxshi urug’siz navlarni tanlash, tok tupi yuklamasi, mineral o’g’itlar va o’sishni boshqaruvchi moddalarning eng maqbul miqdorlari ishlab chiqilmoqda.

Tokchilikda o‘g‘itlarni qo‘llash samaradorligi ko‘pgina omillar bilan belgilanadi. Ular ichida tuproqning tabiiy unumdorligi, uning namlanganligi, umumiy tok o‘stirish madaniyati va toklarning tuproqdan ozuqa moddalarini iste’mol qilish qobiliyati kabilar muhim o‘rin egallaydi. Hosil va tokning vegetativ massasi bilan tuproqdan ozuqa moddalarining olib chiqilishi tuproqning tabiiy unumdorligini yaxshilash va uni kerakli darajada saqlab turishni talab qiladi.

Qo‘riq va qayta tiklangan yerlarda yangi tokzorlar barpo etishdan oldin tuproq unumdorligini ko‘p miqdorda organik o‘g‘itlar (40 tonnagacha) solish qo‘shimcha ravishda tegishli miqdorda mineral o‘g‘itlar solib, 1–2 yil davomida oraliq ekinlar yetishtirish yo‘li bilan yaxshilash talab etiladi. Shuningdek hozirgi kunda organik va mineral o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llash uzum hosildorligi va sifatiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda hususan buni xo‘raki uzumlarning rangdor navlarida ko‘rishimiz mumkin. Yaxshi tekislangan, organik moddalar bilan boyitilgan, ko‘p yillik begona o‘tlardan tozalangan maydonlarda tok o‘tqazishdan 2–3 oy oldin yer chuqur haydaladi. Tok o‘stirish uchun sug‘oriladigan almashlab ekilgan yerlarni o‘zlashtirishda chuqur haydashdan oldin mineral o‘g‘itlarning asosiy miqdorini gektariga (120 kg azot, 90 kg fosfor va 30 kg kaliy) organik o‘g‘itlar gektariga 5 dan 20 tonnagacha qo‘shib solish mumkin. Shu bilan birga tok qator oralarida poliz va sabzavot ekinlarini ular uchun qabul qilingan o‘g‘itlash va sug‘orish texnologiyasi bo‘yicha yetishtirishda ham tokzorlarda qulay suv ozuqa rejimi yaratiladi.

Bo‘z tuproqli yerlarda ekish paytida uzum uchun o‘g‘itlarning asosiy turlari: organik - kompost, go‘ng; mineral - kaliy tuzi, superfosfat; yog‘och kuli uzum uchun o‘g‘it sifatida keng qo‘llaniladi. O‘g‘itlar xandaqning pastki qismiga qo‘llaniladi. Uzumzorni ekishdan keyingi dastlabki oylarda tuproq qatlamini ozuqa moddalari bilan boyitish muhim ahamiyatga ega, unda kelajakda ildiz tizimi rivojlanadi. Agar uzum butalari yomon rivojlansa, ayniqsa, bu qumli tuproqlarda sezilarli bo‘lsa, unda o‘simliklar faqat azotli o‘g‘itlar (ammiakli selitra, karbamid ammoniy sulfat) bilan oziqlanishi mumkin.

Har yili mevali uzum butasi tuproqdan mavjud bo‘lgan ozuqa moddalarini - azot va kaliyni olib tashlaydi. Shuning uchun tuproqqa bir xil miqdorda o‘g‘it qo‘llanilishi

kerak. Uzum uchun fosfor-kaliyli va organik o‘g‘itlar qora tuproqli tuproqlarda har 3-4 yilda, qumli tuproqlarda esa 2-3 yilda bir marta qo‘llanilishi kerak. Uzum uchun organik o‘g‘itlar o‘rim-yig‘imdan keyin kuzda, noyabr oyining boshlarida qo‘llaniladi.

Xususan, Ukrainaning janubi uchun Ukraina hayot fanlari ilmiy-tadqiqot instituti ikkita o‘g‘itlash sxemasini ishlab chiqdi va ishlab chiqarishni tavsiya qiladi, ulardan biri janubiy va oddiy qumloq chernozemlar va kashtan tuproqlari bo‘lgan uzumzorlarda, ikkinchisi - o‘g‘itlash qumli tuproqlar uchun mo‘ljallangan. Sxemaga ko‘ra, butun uzumzor maydoni uchta teng qismga bo‘linadi va ularning har biri o‘g‘itlanadi. Keyingi yili o‘g‘itlar birinchi va ikkinchi maydonga odatdagidek, uchinchi yilda esa uchinchisiga ko‘rsatilganidek qo‘llaniladi. Keyingi yillarda o‘g‘itlash bir xil tartibda almashtiriladi. Asosiy mineral o‘g‘itlar azot 60 kg / ga va fosfor 120 kg / ga miqdorida qo‘llaniladi. Ularni qo‘llashdan ikki-uch hafta oldin 10-12 tonna go‘ng yoki torf bilan kompostlanadi. Go‘ng, mineral o‘g‘itlar kabi, bu tizimda har yili ishlatiladi. Mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda bahorgi qo‘llashni hisobga olsak, uzumzorning har gektariga yiliga 15 tonnadan go‘ng tushishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida organik o‘g‘itlarning (ayniqsa go‘ng) katta samaradorligini hisobga olib, tokchilikda bu o‘g‘itlardan tejab va maqsadga muvofiq foydalanish zurar. Buning uchun go‘ng o‘rnida tarkibida chirigan organik moddalar bor chiqindilardan (uzum to‘poni, o‘simlik qoldiqlari) keng foydalanish kerak. Ularga fosfor, kaliy, mikroelementlardan (kul, suyak, sanoat chiqindilari) iborat mineral moddalar qo‘shiladi. Bunday organik moddalarni solish normasi go‘ng solish normasiga nisbatan 2–3 marotaba yuqori bo‘lishi kerak. Uzumdan mo‘l hosil olinadigan tokzorlarda xar 3–4 yilda gektariga 20–40 t miqdorida organik o‘g‘itlar solib turish zarur. Bunda o‘g‘it tok tuplari qishga ko‘milgandan keyin yerni 25–35 sm chuqurlikda haydab, go‘ng sochgich bilan solinadi. Organik va mineral o‘g‘itlarni chuqur kovlagich bilan qaziladigan 60×60 sm li chuqurlarga solish juda samaralidir. Bunda har bir chuqurga 20–30 kg dan o‘g‘it solinadi.

Tok novdalari yaxshi o‘smaganda yoki tupda ko‘p hosilli novda va sho‘ralar rivojlanib, hosil mo‘l bo‘lgan yillarda, yoki fiziologik aktiv moddalar qo‘llanilganda, toklarni birinchi marotaba may oyida, ikkinchi marotaba 10–15 kundan keyin gektariga

60 kg azot, 45 kg fosfor va 15 kg kaliy bilan qo‘shimcha mineral oziqlantirish talab etiladi. Sug‘orilmaydigan yerlardagi tokzorlarda tuproqda yetarlicha nam to‘planganda (kech kuz va bahorda) organik o‘g‘itlar aralashmasini solish kerak, bu o‘g‘itlarning o‘simlik ildizlariga yaxshi yetib borishini ta’minlaydi. Bunday sharoitda o‘g‘itlarni chuqurchalarga solish ayniqsa samaralidir. O‘rtacha qumoq tuproqlarda gektariga 3 t go‘ngni mineral o‘g‘itlar gektariga 60 kg. dan azot va fosfor va 15 kg kaliy bilan 30–40 sm chuqurlikka solish zarur. Og‘ir qumoq tuproqlarda 1 t go‘ng gektariga 120 kg azot, 90 kg fosfor va 30 kg kaliy bilan qo‘shib 40–50 sm chuqurlikka solinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Negrul A.M. Vinogradorstvo. «Selxoz metrologiya». Moskva, 1989.

2. Ostonaqulov T.E., Narziyeva S.X., Hamdamova E.I. Uzumchilik (Ma’ruzalar kursi). Samarqand 2006

3. Temurov Sh. Uzumchilik (Ma’ruza matnlari). Toshent, 2000.

4. Temurov Sh. «Uzumchilik», Uzbekiton milliy enseklopediyasi. Toshkent

**5.** Uzumchilik ma’ruzalar matni. Toshkent 2010.

**Internet saytlari:**

www.agro.uz

www.vinograd.info

www. ziyonet.uz

# ШАРҚ МЕВАХЎРИ (GRAPHOLITHA MOLESTA BUSCK.) БИОЛОГИЯСИ ВА ҚАРШИ КАРАНТИН ТАДБИРЛАР

**Рахмонова доктарант Н.Мирабдуллаева магистр Ф.Узоқов**
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти Ўсимликлар ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари карантини кафедраси доценти

**Анотатция.** Мевали боғлар ҳосилдорлигини ошириш ва мевалар сифатини яхшилаш шу куннинг долзарб вазифаларидан биридир. Бунинг асосий омилларидан бири - уларни зараркунанда ва касалликлардан ҳимоя қилишдир. Мевали боғларда зарар етказиб яшовчи 150 дан ортиқ зараркунанда ва касалликлар маълум. Бундай зараркунандалар биоэкологиясини яхши билган ҳолда кураш тадбирларини уларнинг энг заиф даврида ўтказиш ўта муҳимдир

**Калит сўзлар:** мевахўр, тухум, зараркуранда, тур, бог.

**Аннотация.** Повышение продуктивности садов и улучшение качества плодов является одной из актуальных задач современности. Одним из основных факторов является защита их от вредителей и болезней. Известно более 150 вредителей и болезней, наносящих ущерб садам. При хорошем знании биоэкологии таких вредителей очень важно проводить меры борьбы в период их наибольшей слабости.

**Ключевые слова:** плодоядные, яйцо, вредитель, вид, сад.

**Annotation.** Increasing the productivity of orchards and improving the quality of fruits is one of the urgent tasks of our time. One of the main factors is to protect them from pests and diseases. More than 150 pests and diseases are known to damage orchards. With a good knowledge of the bioecology of such pests, it is very important to carry out control measures in the period of their greatest weakness.

**Key words:** frugivorous, egg, pest, species, garden.

**Кириш.** Мевали боғлар ҳосилдорлигини ошириш ва мевалар сифатини яхшилаш шу куннинг долзарб вазифаларидан биридир. Бунинг асосий омилларидан бири - уларни зараркунанда ва касалликлардан ҳимоя қилишдир. Мевали боғларда зарар етказиб яшовчи 150 дан ортиқ зараркунанда ва касалликлар маълум. Бундай зараркунандалар биоэкологиясини яхши билган ҳолда кураш тадбирларини уларнинг энг заиф даврида ўтказиш ўта муҳимдир. Мевахўрлар - боғ зараркунандалари бўлиб, олма, нок, беҳи, шафтоли, гилос, олхўри, олча, бодом ва ёнғоқ дарахтларининг ҳосилдорлигини пасайтиради ва мева сифатини бузади, баъзан истеъмолга яроқсиз қилиб қўяди. Булар ичида шарқ мевахўри - (Grapholitha molesta Busck.) Insecta синфи, Lepidoptera туркумининг барг ўровчилар Tortricidae оиласи, Grapholita авлодига мансуб ички карантин ҳашарот ҳисобланади. Бу зараркунанда илк бор Хитой ва Корея давлатларида аниқланган бўлиб зараркунанда сифатида эса биринчи бор 1899 йилда Японияда тан олинган. Ўзбекистон худудига эса 1980 йилда кериб келган бўлиб, хозирда Республикамизнинг 2577,2 га майдонида тарқалганлиги аниқланган.Шарқ мевахўри асосан шафтолига ҳамда бошқа уруғли ва данакли дарахтларга ва уларнинг меваларига шикаст етказади. Новдаси зарарланган шафтоли ва бошқа дарахтларнинг ўсиш меъёри ўзгаради; зарарланган мевалар истеъмолга ярамайди. Шарқ меваҳўри меванинг ички қисмига ўрнашиб олиб ичини ва уруғларини кемириб, яроқсиз ҳолатга келтиради, шафтоли кўчатларини зарарлаш давомида, кўчат танаси ичида 12-15 см узунликда йул очади, натижада кўчат учки томонидан сўлиб барглари тушиб кетади. Бу жараён дарахтни ўсишини секинлаштиради ва кучсизлантиради. Бу еса меваларни тўкилишига ва ҳосилдорликни 40-50% пасайишига олиб келади.

**Зарари**. Шафтоли, олхўри, гилос, олча, ўрик, олма, нок ва беҳига жиддий зарар етказади. У асосан новда ва мевани зарарлайди. Гилос дарахтларида эса янги ўсган новда учидан кириб ўртасини ейди. Шафтолининг ёш новдаларини зарарлаб, бора-бора қуритиб қўяди. Шафтолида мева ичига кириб данак атрофини ейди.

**Қарши кураш;** Шарқ мевахўрига қарши курашиш мақсадида агротехник тадбирларни амалга ошириш зарур.Шу мақсадда кузда хазон баргларни тўплаб кўмиб юбориш, дарахт танасини эски пўстлоқлардан тозалаш, дарахт атрофини чопиқ қилиш, дарахтлар танасини оқлаш, боғларда тутқич белбоғлар ўрнатиш, пишмай тўкилаётган меваларни ҳар куни териб олиш керак.

Касаллик сабабчисига қарши кимёвий усулда ҳам курашиш мумкин. Таркибида хлоратранилипрол, диметоат, малатион, тиоклоприд бўлган кимёвий препаратлар билан ишлов бериш касалликни бартараф этишда яхши самара беради.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Alrubeai H. F., AL - Tai S. H. Mass rearing of the parasitoids, *Trichogramma evanescens & T. oleae (Hym: Trichogrammatidae)* // Egg Parasitoid News, 2004. №16. P. 22.

2. Agamir Karimi. Survey of capability of parasitic wasp *Trichogramma embryophagum* to control *Ostrinia nubilalis,* in Iran area at 1999 - 2001 // Egg ParasitoidNews, 2004. №16. P. 24.

3. Bastos C. S, Suinaga F. A. Potential use of *Trichogramma* as a tool in cotton IPM in Mato Grosso, Brazil // Egg Parasitoid News, 2004. №16.P.24.

4. Babi A.B. etal. Etude de *Trichogramma Deudrolimi* (*Humenoptera, Trichogrammatidae*) Deseriptiond une Nauvelle Sous Especе || Entomophage. 1984. Vol.29. №4 P 369-378.

5. Теленга Н.А, Шепетильникова В.А. Руководства по размножению и применению трихограммы для борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. Киев, Урожай, 1949. 91-97 с.

6. Теленга Н. А. Опыт широкого использования биологического метода борьбы с озимой совкой в Смелянском районе Киевской области // ВестникАН УССР. 1951. №2. С. 53-61.

# АДАБИЙ-БАДИИЙ ТАФАККУРДАГИ ОБРАЗ ВА ОБРАЗЛИЛИК ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

**Толипова Аида Муратовна**
Тошкент тўкимачилик ва енгил саноат институти
E-mail: aidatolipova98@gmail.com

**Аннотация:**Тезисда Европа адабий-танқидий тафаккури тараққиётида образ ва образли ифода ҳақидаги умумий илмий-назарий қарашлар таҳлил қилинади. Муаллиф уларни тизимга солиб ўз муносабатини билдирар экан, уларни аҳамияти катта эканлигини эътироф этади.

**Калит сўзлар:** образ, асар, образли тафаккур, адабиётшунослик назарияси, Платон, Аристотель.

**Annotation:** The thesis analyzes the general scientific-theoretical views about image and figurative expression in the development of European literary and critical thinking. The author admits that they are of great importance as he expresses his attitude by introducing them into the system.

**Key words**: image, work, image thinking, literary theory, Plato, Aristotle.

Инсоният тафаккур қилишни ўрганган пайтдан бошлаб образли фикрлашни ҳам ўзлаштирган. Бунда «Объект қадриятлари ҳамма вақт субъект-объект қадриятлари даражасидан пастроқда бўлади. Шу тариқа, улар фақат иккинчи даражали аҳамиятга эга бўлади, холос. Айтиш мумкинки, у шу пайтда субъект мазмунини билдирувчи ташқи белгининг объектидир. Чунки ғояларнинг эврилишида барча вақт ғоянинг ўзи салмоқли ўрин тутади, ёки объект қайсидир ҳис-туйғунинг предмети ҳисобланади. Бироқ, бу ерда асосий ролни объектнинг ўз шахсий реаллиги билан эмас, балки кечинма ўйнайди» [4, 38]. Демак, объектнинг реал ҳаётда мавжудлиги унинг субъектив мазмунини ифодалайди ва

бу ерда субъект-объект муносабатида кечинма биринчи ўринга чиқади. Бошқача айтганда, ижодкор ўз субъекти ташқи оламдан таъсирланган кечинмаларини ифодалайди. Бунга халқ бадиий тафаккурида ўтроқлашиб, оддий тушунча сифатида қўлланиладиган қатор сўз бирикмаларини мисол сифатида келтириш мумкин. Масалан, “кун чиқди”, “кўнгли тўлди” каби сўз бирикмаларини олайлик. Дастлаб шаклланган пайтда кун ва унинг чиқиши инсон ҳаётида улкан аҳамиятга эгалигини ҳозиргидан теранроқ англашган. Бир кун бу бир умрли ҳаёт сифатида англанган ва қоронғулик, зимистон бўлгач, киши ўлган ҳисобланган. Сўнг қайта чиқиши орқали қадимги одам қалбида ҳаётга нисбатан муҳаббат уйғонган, қайта тирилишга ишонч пайдо бўлган. Бу орада баъзилари тунда вафот этган пайтлари ҳам бўлган. Шунинг учун кун чиқиши алоҳида маросим ташкилланган. Тонг маъбудаси мадҳиялар ана шундай ибтидоий тафаккур маҳсулининг қолдиқлари саналади. Кейинчалик эса инсон билим, илм, тажриба, воқеа-ҳодисалар сабабини англай бошлагач, тонгнинг отиши ёки куннинг чиқиши аввалгидек улкан аҳамият касб этмай қолди. Аммо ҳамон кишилар кун чиққандан хурсанд бўлишади, тонг отишидан завқ олишади. Шунинг учун кун чиқиши, тонг отишига оид лавҳалар турли шеър,ҳикоя, ранг тасвир, кинофильмларда фаол қўлланилади.

Антик давр мутафаккирларидан бири бўлган Платон ҳам ўз даврида давлат, етук жамият қуриш ҳақидаги қарашларини ифодалашда бадиий образнинг шахс ҳаётидаги ўрнини юксак баҳолайди. “Шундай қилиб, у ўзгаларнинг нутқларини (гапларини) келтирганда ҳам, улар (яъни,ўзгаларнинг нутқлари) орасида ўз номидан гапирганда ҳам, бу бари бир ҳикоя қилиш (қисса айтиш)бўлади” [3, 420]. Демак, ровий ўзгалар номиданми ёки ўз номидан гапирадими, ҳикоя қилаётган воқеа баён қилиш ҳисобланади. Аммо,бу ерда образли фикрлаш, образли ифодадан кўра услубга оид тушунча етакчилик қилади. Тўғри, поэтика масалаларида ривоя, образ, сюжет, асар тили каби тушунчалар ўзаро яхлитликда келади. Барчасининг асосида бадиий сўз, ғоя, мақсад, муаммо ётади. Шу маънода баён қилинган воқеа ҳам кенг планда давр, жамият образи сифатида олинади. Шунинг учун барча етук асарларни,

жумладан, Нурали Қобул ёки Жек Лондон асарларини ўқиганимизда кўз олдимизда, аввало, воқеа кечган макон ва замон намоён бўлади. Биз истаймизми йўқми, Жек Лондон ҳикоялари, романларини ўқиганда, биринчи галда, XIX асрдаги АҚШ жамияти тасвирини тушунамиз. Лекин ёзувчи асардаги жой, киши, ҳаракат, ҳолат, ҳодисалар тасвири ҳам образ саналиб, улар давр, жамият тасвирида нисбатан аниқроқ ифодаланади. Масалан, ёзувчи “яхши фазилатли одамнинг қандайдир фикри ёки ҳаракати (иши)га келганида, буни у гўёки, бу одам унинг ўзи бўлгандек кўрсатишни хоҳлаб қоралади: бундай тақлид уят бўлмайди” [3, 113]. Қаранг мутафаккир образ яратишнинг ибтидоий, шунинг билан бирга умумий назариясини кўрсатар экан, образ сифатида унинг нисбатан аниқроқ, конкретроқ тасвирини, ҳатто асардаги персонаж яхши бўлиши ва бошқаларга ўрнак даражада бўлишини оқлайди. Чунки “Санъаткорлар муайян шахсларни тасвирлайдилар, улар эса яхши ёки ёмон бўлиши мумкин. Негаки, шахсларнинг қандайлиги шу билан белгиланади, зеро, ҳамма одамлар характериларидаги иллатлари ёки фазилатлари жиҳатидан фарқланади” [2, 21-22]. Ана шу фарқнинг ижобийси образ ботинидаги кечинма ва ундан англанган бадиий-эстетик идеалга муштарак бўлади. Шу ерда образнинг бутун моҳияти намоён бўлади. Бироқ, “образ” сўзи ва унинг терминологик маъноси нисбатан кейинроқ шаклланди. “Образ I м.1 кўриниш, қиёфа, сиймо, шакл, афт,башара;... 2 тасаввурдаги кўриниш, тимсол, сиймо;... 3 иск. Образ. 4. чего тарзи; образ мыслей – фикр юритиш тарзи” [1, 697] маъноларида келиб фалсафа, психология, эстетика, адабиётшунослик, кино, театр, тасвирий санъат каби соҳаларда фаол қўлланилади. “Бадиий образ,эстетик категория бўлиб, борлиқни қайта идрок қилиш ва англашнинг фақат санъат хос жиҳатини билдиради. Шунингдек, бадиий асарда ижодий яратилган ҳар қандай ҳодиса образ дейилади. Масалан, Л.Толстойнинг “Уруш ва тинчлик” асаридаги уруш образи, халқ образи, Наташа Ростова образи” [5, 252]. Демак, бадиий образ тушунчасининг ўзи кенг маънода бадиий асардаги уруш, халқ, киши, жой тасвирларини билдиради.

Римлик бошқа бир олимнинг фикрича: “.. худди трагиклар ўзлари танлаган нарса ҳақида ҳикоя қиларкан персонажларни ҳаракатланишга ва гапиришга

мажбур қил”адилар... Зеро, “поэтика ... илм, яъни биз поэзия деб атайдиган нарсани яратишни ўргатувчи қоидалар тизмидир” [7, 138]. Бу ердаги асосий мулоҳаза образларнинг ҳаракатда бўлиши, сўзлаши асардаги сюжет композициясини ҳосил қилиш учун муҳимлиги таъкидланган. Аниқроқ айтганда, образ бадиий асарга кирганда ўз юкламасидан қатъий назар сюжетда иштирок этиши шартлиги, бу эса уни маълум макон ва вақт бирлигида яққол ифодаланиши, яъни образ сифатида берилишини талаб этиши уқдирилган. Дарҳақиқат, персонаж образ сифатида асарда ўз ўрнига эга бўлиши ва турли макон образи ёки сюжет таркибида мавжуд бўлиши асар бадиийлигини кучайтиради.

Умуман олганда, борлиқни бадиий идрок этиш ва образ яратиш муаммоси адабиётшуносликда доимо долзарб муаммо бўлиб келган. Олимлар илгари сурган фикр-мулоҳаза, асосан, бугунги кун учун ҳам аҳамиятли саналади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Акобиров С.Ф., Магруфов З.М., Маматов Н.М. Русско-узбекский словарь. В двух томах. Том I. – Ташкент: Главная редакция Узбекской Советской Энциклопедии, 1983. – 808 с.

2. Арасту. Поэтика. Ахлоқий кабир.Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.

3. Афлотун. Давлат: насрий достон.Тарж. Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 464 б.

4. Карл Густав Юнг. Психологические типы. – 440 с. www.royallib.ru.

5. Литературный энециклопедический словарь /Под общ.ред.В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1987. – 752с.

6. Михаил Пселл. Италнинг шарафига / Қуронов Д. Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.134-137.

**УДК : 632.996**

# МЕВАЛИ БОҒЛАРДА УЧРАЙДИГАН ЭНТОМОФАГЛАРНИНГ ДОМИНАНТ ТУРЛАРИНИНГ СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ

**Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна**

**Магистлар Шоимова Д , М,Шарипова**

**Аннотация:** Мевали боғларда энтомофаунани шаклланиши ва уларнинг ўзаро ривожланиши муҳим аҳамиятга эга бўлиб, фитофаглар сонининг ўзгаришига катта таъсир кўрсатади. Кузатувларимизда боғ агробиоценозидаги энтомофаглар ўрганилганда 7 оилага мансуб 24 та доминант турлар аниқланди. Бундан ташқари ушбу энтомофаг турларининг энтомофагларга нисбатан улиши ҳам ўрганилди.

**Калит сўзлар:** мевали боғ,, зараркунанда энтомофаг, энтомофауна, паразитлар, ареал, тур, оила.

**Аннотация**: Формирование энтомофауны в садах и их взаимное развитие имеют важное значение и оказывают большое влияние на изменение численности фитофагов. В наших наблюдениях при изучении энтомофагов в садовых агробиоценозах выявлено 24 доминирующих вида, относящихся к 7 семействам. Кроме того, было изучено отношение этих видов энтомофагов к энтомофагам.

**Ключевые слова**: сад, вредитель-энтомофаг, энтомофауна, паразитоид, ареал, вид, семейство.

**Abstract:** The formation of entomofauna in gardens and their mutual development are important and have a great influence on the change in the number of phytophages. In our observations, when studying entomophages in garden agrobiocenoses, 24 dominant species belonging to 7 families were identified. In addition, the ratio of these types of entomophages to entomophages was studied.

**Key words:** garden, entomophagous pest, entomofauna, parasitoid, range, species, family.

**Кириш.** Кейинги йилларда боғдорчилик майдонинг кенгайиб бориши хусусан, интенсив боғлар барпо қилинаётганлиги сабабли, республикамизда қишлоқ хўжалик экинларини жойлашиш структурасида рўй бераётган ўзгаришлар йиллар мобайнида озиқланиш занжири асосида вужудга келган организмлар тур таркибининг ўзгариши, энтомофагларнинг янги турларини кириб келиши, боғдорчиликда мева ҳосилини зараркунандлардан сақлаб қолишда, уларга қарши кураш тадбирларининг аҳамиятини ошириб, унга илмий асосда ёндашишни тақозо қилади.

*Қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган боғдорчилик махсулотларининг катта қисми зараркунандалар орқали йўқотилаётгани ҳаммамизга маълум. Айниқса барг ўровлари ва мевахўрлар буларнинг асосийларидир. Биргина олма мевахўри орқали айрим йиллик меванинг 75-80% нобуд бўлиши кузатилмокда. Уларга қарши курашда эса фақатгина экологик тоза усуллардан фойлаланиш бугунги куннинг талабларидан биридир. Бунинг учун агробиэценозида энтомофаунани шакллантириш ва зараркунанда турига қараб қўйиш энтомофаг турларини қўллаш муҳимдир.*

Республикамизда ташкил этилган биолабаратория ва биофабрикалар кўплаб биомаҳсулот ишлаб чиқармокда. Асосан зараркунандаларнинг паразитлари трихограмма, олтинкўз, бракон фойдали ҳашаротлари биолаборатория шароитида кўпайтирилиб, хосилдорликни сақлаб қолиш мақсадида, кушандалар экин майдондарига чиқарилмоқда. Республикамизда ташкил этилган биолабаратория ва биофабрикалар кўплаб биомаҳсулот ишлаб чиқармокда. Асосан зараркунандаларнинг паразитлари трихограмма, олтинкўз, бракон фойдали ҳашаротлари биолаборатория шароитида кўпайтирилиб, хосилдорликни сақлаб қолиш мақсадида, кушандалар экин майдондарига чиқарилмоқда.

Қишлоқ хўжалиги экинларинн ҳимоя қилишда энтомофаглардан тухумхўр трихограммаларни қўллаш алоҳида ўрин тутади.

Ўзбекистонда трихограмманинг 15 тури қайд қилинган Трихограммани қўллаш борасидаги кўп йиллик тажрибалар шуни кўрсатмоқдаки, узоқ давом

этган эволюция жараёнида маҳаллий шароитга мослашган тухумхўрнинг маҳаллий туриридан фойдаланилган тақдирдагина

Tevanescens Westw Ўабекистонда кўплаб тарқалган тур ҳисобланади. Бу трихограмма турлари баҳор ва куз ойларида табиатда кўплаб учрайди. Сабзавот - полиз экинларига тушадиган тунлам тухумларида текинхўрлик қилиб ҳаёт кечиради, лекин боғларда олма қурти ва барг ўровчи зараркунандаларнииг тухумларида ҳам текинхўрлик қилувчи махсус тураро ирқлари ҳам мавжуддир. *Trichogramma chilonis* янги тури ТошДАУ “БИОМАРКАЗ” да кўпайтирилиб, интенсив боғларда олма қурти тухумларига қарши қўллашнинг самарали меъёр ва схемалари ишлаб чиқилмокда. Трихограммани бу схемаларда қўллаш натижасида, юқори самарага эришилмоқда. Боғда олма мевахўрининг энтомофаг турларидан лиотрофон, скамбус, қизилоёқ микродус каби турлари учраши қайд этилган.

**Тадқиқот материаллари ва услублари:** Мевали боғлар бўйича ўтказилган кузатувларга кўра, фойдали хашарот турлари ва сони бўйича хисоб килинди. Унда экинларида учрайдиган йиртқич ва паразит энтомофаглар, уларнинг хужайралари ўрганилди. Шундан айрим самарали турларни лабораторияда кўпайтириш, қўллаш технологияси ишлаб чиқилди ва Chrysopidae боғдорчилик фермер хўжаликларига жорий этилмоқда. Кузатушларимиз Андижон вилояти Избоскан тумани айрим боғдорчилик фермер хўжаликлари майдонларида олиб борилди. Эрта баҳорда энтомофаг ва фитофагларнинг қишловдан чиқиш боғда энтомофаунанинг шаклланиши, ареалидаги турлар зичлигининг шароитга қараб ўзгариши каби жараёнлар аниқланиб, энтомофаглар захирасини шакллантириш омиллар қўшимча қўлланиш кабилар бажарилди. Энтомофаг ва фитофаглар намунали йиғинда энтомологик турлар ва БУФ ёруғлик туткичлардан фойдаланилди. Йиғилган намуналар лаборатория шароитида аниқлагичлар бўйича систематик тахлил килинди.

**Тадқиқот натижалари:** Йиғилган маълумотларга кўра ҳисоб килинганда паразит энтмофагларнинг йиртқич энтомофагларга нисбатан кўплиги аниқланди.

Tachinidae оиласи - 16,2 % ташкил қилиб, доминант турлар сифатида *Exorista tarvarum, Exasnthaspis, Gonia cilipeda, Spallanzania hebes, Tachina rohdendorfi* қайд этилди.

Унга кўра braconi*dae* оиласи - 42,4 % ташкил sилиб, доминант турлар сифатида Apanteles talengai A. Vanessae: A. Spectabilis, Bracon hebetor, Rogas dimidiatus, R.pallidator, R.rossicus қайд этилди.

*Ichneumonidd* - оила вакиллари бошқа паразит энтомофагларга нисбатан кўп учраб жами энтомофагларнинг 18.6 % ни ташкил этди. Бунга асосий сабаб ушбу турга оид хўжайин турларинг кўплиги ва бир паразитнинг бир нечта турдаги хўжайинлар билан озиқланиши ва иқлим шароитнинг

Дастлаб 2021 йилда Андижон вилояти Андижон туманидаги “биокимё интенсив”МЧЖ олма боғларида март ойининг биринчи ўн кунлигида йигилган мевахўрнинг қишловчи ғумбакларидан аниқланди. Паразитнинг катталиги 3 мм ни ташкил этади. Битта ғумбакка катталигига қараб 2-6 тагача тухум қуяди. ривожланишининг барча боқичларини ғумбакда ўтказади. Ривожининг охирида хўжайин ғумбаклари ичида ғумбакка айланади учиб чиқади.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Саувач А.Х., Мусолин Д.Л. Биология и экология паразитических перепончатокрыл (Hymeneptera: Apocrita: Parasitica). Санкт-петербург. 2013.-С3.
2. Коладева Л.М. Определитель вредных и полезных насекомых и клещей плодовыягодимах культур в Ленинград. «Колос» 1984. С 32-33.
3. Штернщис М.В., Джалилов У., Андреева И.В.,Томилова О.Г Биологическая защита растенин “Колос” -Москва.: 2004. -С 101.
4. Хамраев А.Ш., Насриддинов К. Ўсимликларни биологик ҳимоялаш. Халқ мероси нашрёти. Тошкент 2003. 212 б.

# YOSHLAR O‘RTASIDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATI XUSUSIYATLARI

**Norboyeva Mohigul Shavkat qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
E-mail: mohigulnorboyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida axborotdan foydalanish xususiyatlari, axborot madaniyati masalasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili, axborotlardan foydalanishda yosh chegarasi xususiyatlari haqida qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar***:* yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta’lim.

# FEATURES OF A CULTURE OF INFORMATION USE BY YOUNG PEOPLE

**Annotation.** This article describes the characteristics of information use among young people, the analysis of research conducted on the issue of information culture, and views on the characteristics of the age limit in the use of information.

**Key words:** the youth, information, information culture, the Internet, education.

Yoshlarni bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makonida zararli axborot hamda ijtimoiy xavfli ta’sirlardan himoya qilish ertangi kun garovi sifatida xizmat qiladi. Yoshlar orasida axborot madaniyatini rivojlantirish o‘z navbatida jamiyat siyosiy savodxonligi darajasiga ham yuqori darajada o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi tabiiydir. Insoniyat ertangi kuni uchun kurashar ekan bunda yosh avlodning munosib davomchi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning mas’ullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo‘yilayotgan maqsadlar ularda qat’iy rioya qilinishi talab etiladigan iyeyorlarni ham yuzaga keltiradi.

Mavzu doirasida ilmiy ishlar ko‘plab olib borilgan bo‘lib, tadqiqotchilar mazkur masalaga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi turli yo‘nalish va holatlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, rossiyalik olimlar G.T.Abitova, Ye.V.Xarunjayeva, O.A.Fedosova va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida axborot madaniyati xususiyatlari, yuqori sinf o‘quvchilari psixologik xususiyatlari, yuqori sinf o‘quvchilaridagi axborotlardan foydalanish bo‘yicha mavjud muammoa va kamchiliklar, ularning axborotlardan samarali va to‘g‘ri foydalanishi bo‘yicha tegishli yo‘riqnomalar ilmiy asoslar orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, mazkur mavzu doirasida o‘zbek olimlari N.M.Kodirov, N.S.Safayev, B.Xodjayev va M.Maxmudova hamda boshqalar mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, asosan axborot tasnifi, samarali va zararli axborotlar sinfini ajratib, o‘quvchilar uchun mos axborot makonini yaratish bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar keltirib o‘tishgan. M.U.Maxkamova esa texnika oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini shakllantirish asoslari bo‘yicha ilmiy olib borgan bo‘lib, unda asosan texnika yo‘nalishi talabalari tomonidan axborot madaniyati shakllantirilishi bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida axborot madaniyati bilan uzviy bog‘liq mavzu sifatida xulosalar o‘rganilib, tegishli ko‘rsatmalar orqali ilmiy ish shakllantirilishi maqsad qilib olingan.

Yoshlar ta’lim tarbiyasi bo‘yicha qarashlar o‘z faoliyatida turli o‘zgarishlarga uchrab, bugungi kunda tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra o‘quvchi-yoshlarlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Axborotlashgan jamiyatda bolalar axborot madaniyati elektron o‘yinchoq, shaxsiy kompyuter yordamida shakllantirish zarur bo‘lib, axborot yo‘nalishi nazariy fanlarini o‘rganish bilan birga, kompyuter axborot texnologiyalariga yetarlicha vaqt ajratishi kerak. Sababi jamiyatdagi axborot bo‘ronidan mazkur jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlarni himoya qilish uchun axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

“Axborot savodxonligi” tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ishlatgan bo‘lib, AQSH kutubxonalar uyushmasi 1989 yildan mazkur

masalani o‘rganib kelmoqda. Axborot savodxonligi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda standartlar ishlab chiqilib, unga ko‘ra, “O‘quvchilarning ta’lim olishdagi axborot savodxonligi standartlari”ni kiritish mumkin. Unda 12 yillik ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun o‘rnatilgan axborot savodxonligi standartlari belgilab berilgan. Mazkur meyorlarga muvofiq axborotdan foydalanish madaniyati shakllanib kelmoqda.

Yoshlarda axborot olish madaniyati shakllantirish quyidagilardan iborat:

• axborot olish va uni tasarruf etishda axborotning mazmun-mohiyatiga, uning haqiqiy ekanligi, qaysi omillarga asoslanganligi va qanday maqsadda tarqatilayotganligi g‘oyasiga asoslanganligiga e’tibor qaratish;

• axborotni qanday natija berishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uni tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlab, so‘ngra muayyan bir xulosaga kelish;

• axborotga ongli, yuksak tafakkur bilan yondashish va uni kerak hollarda sintez qilish, salbiy fikrlarga qarshi, axloqiy-ruhiy sharoitlar yaratish;

• axborotda ijobiy fikrlarni jonlantirish, targ‘ib etishda milliy qadriyatlarga asoslanish. Bu ishni aniq tarixiy vaziyat bilan, rivojlantirish uchun davom etayotgan ichki va tashqi sharoitlar bilan muttasil bog‘lab olib borish;

• mavjud axborotlarda jamiyatdagi ilmiy g‘oyalarning xilma-xilligini saqlagan holda, fuqarolarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishga ziyon yoki tazyiq o‘tkazmaslik;

• yoshlarning axborot olish madaniyatini hisobga olib, undan samarali foydalanish, bajariladigan ishlarning ta’sirchanligini puxta nazorat qilib turish orqali, jamiyatda mustahkam barqarorlik ta’minlash.

Axborot iste’moli, aniqrog‘i, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisa bo‘lib, xizmatlar iste’moli o‘ziga xos shaklidir. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste’mol qilinadiki, mazkur darajalarda iste’mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Shu sabab, yoshlardagi axborot iste’moli uchun alohida axborot tizimi shakllantirilgan bo‘lib, O‘zyuyekistonda yoshlar uchun “Yosh turkistonchilar”, “Bolalar tovushi”, “Bolalar yo‘ldoshi”, “Bolalar dunyosi”, “O‘zgarish bolalari” bolalar nashrlari shakllanganligini misol qilishmiz

mumkin. Ammo shuning bilan axborot olamining chegaralanmasligi sabab yoshlar uchun barcha axborot olami ochiq bo‘lib, undan noto‘g‘ri foydalanish holatlari ham ko‘p uchramoqda.

Umuman yoshlar o‘rtasida axborotlardan foydalanish bugungi texnologiyalar davrida juda muhim bo‘lib, bu o‘z navbatida yoshlar o‘rtasida turli tahdidlar oldini olishda ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O‘zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.

2. Abitova G.T. Formirovaniye osnov informatsionnoy kulturi detey starshego doshkolnogo vozrasta sredstvami sotsialno-kulturnoy deyatelnosti: Dis. … kand. ped. nauk. – Sankt-Peterburg: 2015. – 220 s.

3. Xarunjayeva YE.V. Formirovaniye informatsionnoy kulturi starsheklassnikov na osnove integrativnogo podxoda: Avtoref. dis. … kand. ped. nauk. – Kirov: 2003. – 20 s.

4. Fedosova O.A. Sotsialno-pedagogicheskiy aspekt formirovaniya informatsionnoy kulturi u starsheklassnikov: Avtoref. dis. … kand. ped. nauk. – Moskva: 2005. – 28 s.

5. Kodirov N.M. O‘zbekiston yoshlarida axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili.: Avtoref. dis. … f.f.b.f.d.. – Samarqand, 2021. – 49 s.

6. Safayev N.S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studencheskoy molodeji.: Avtoref. dis. … doktora psix. nauk. – Tashkent: NUU, 2005. – 38 s.

7. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta’lim zamonoviy axborot texnologiyalarni joriy etishining ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. –143 b.

8. O‘quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi / B.Xodjayev, M.Maxmudova – Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2016. – 80 b.

9. Umarov B., Axmedova M.. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik: o‘quv qo‘llanma / Toshkent. Chashma Print, 2013. - 20 b.

# ИНСОНИЯТНИНГ ЎСИМЛИК ДУНЁСИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ

**Қувондиқов Шохзод Бегали ўғли**
Тошкент давлат аграр университети магистри

**Аннотация:** Ҳозирги куннинг долзарб мавзуларидан бири инсониятнинг ўсимлик дунёсига таъсири, дунё миқёсида хозирги вақтда глабал иқлим ўзгариши оқибатида бутун биосферадаги экосистема таркиби ўзгариб бориши барча инсонлар ҳаётига хавф туғдирмоқда. Бунинг олидини олиш учун ахоли орасида экологик тушунчаларни шакллантириш биологик ресурсларни мухофаза қилиш, сақлаб қолиш чораларини кўрганимиздагина ўз инсоний бурчимизни бажарган бўламиз.

**Калит сўзлар:** Ўсимлик, омил, иқлим, глабал, антропоген, табиий, салбий, инсоният.

Ер юзида аҳоли сонини тез ортиб бориши, илмий-техник тараққиётни жадаллашуви, инсониятнинг биологик ресурсларга бўлган эҳтиёжларини кескин ортиб кетиши ва бошқа бир қатор ижтимоий-иқтисодий омиллар табиат тизимининг энг катта бойликларидан бири бўлган ўсимликлар ва хайвонот дунёсига салбий антропоген таъсирларни хаддан зиёд кучайишига сабаб бўлмоқда. Натижада ўсимликларнинг тури, миқдори ва улар яшайдиган, ўсадиган майдонлар камайиб кетмоқда. Бу ўз навбатида ўсимлик дунёсидаги ўзгариш билан боғлиқ турли экологик, ижтимоий иқтисодий муаммоларни вужудга келтирмоқда.Ўсимлик дунёсига антропоген омилларнинг бевосита ва билвосита таъсирларини ўрганиб экологик мониторинглар олиб борилди.

Ҳозирга келиб 30 мингдан ортиқ турдаги ўсимликлар бутунлай йўқолиб кетган, яна 25 минг тури эса йўқолиш арафасида. Республикамизда эса мавжуд ўсимлик турларининг10-12% ҳимояга мухтождир. Бу хавфли жараённинг олдини олиш энг долзарб экологик муаммолардан бири бўлиб турибди.

Ўсимликларга бой кенг водий ва вохаларимиз, адирликлар, бепоён дашт-чўллар экологик жихатдан тўлиқ илмий асосланмай пала-партиш ўзлаштирилиб пахта далаларига айлантирилди. Катта-катта майдонларни эгаллаган ишлаб чиқариш мажмуалари ва иншоотлари барпо этилди. Дехқончилик ва бошқа соҳалардаги ишлаб чиқариш технологияларини экологик номукаммаллиги оқибатида дунёнинг кўплаб мамлакатларида кузатилганидек, Республикамизда табиий ўсимликлар тури, миқдори ва сифати жихатидан ўзининг бир қатор муҳим функцияларини йўқотди. Яъни, модда айланиш жараёнидаги роли сусайиб кетди, ер усти ва ости сувларнинг мароми изидан чиқди, ерларимизнинг эрозия ва дефляцияси авж ола бошлади, саноатимиз қимматли хом-ашёдан, халқимиз эса гўзал хушманзара дам олиш масканларидан махрум бўла бошлади. Охир оқибатда Марказий Осиёдаги табиий мувозанат бузилиб, ҳозир гувохи бўлиб турганимиздек, Орол муаммоси, ер-сув танқислиги, атроф-муҳитни ифлосланиши каби экологик бухронлар вужудга келди. Ўсимликлар дунёсига антропоген таъсир туфайли юз берган салбий ўзгаришларнинг бош сабабчиси халқ хўжалиги соҳаларида қўлланилаётган ишлаб чиқариш технологияларининг экологик номукаммаллигидир. Мисол учун, ўрмондан кесиб олинган битта ёғочнинг53%игина саноатбоп хом-ашёга айланади ҳолос, қолган 47%и қипиқ, қиринди, пайраха, қийқим, гарбил, намлик тарзида чиқиндига чиқарилади. Хозирги кунга келиб доривор ўсимликларга бўлаётган эхтиёж тобор ортиб бориш натижасида доривор ўсимликлардан фойдаланиш оқибатидан айрим доривор ўсимлик турлари мухофазага мухтож бўлиб бормоқда. Масалан: Қир адирларимизда кенг тарқалган ковул ўсимлигиги бўлган талаб ошиши оқибатда ўсимлик турлари камайиб бормоқда. Турли ишлаб чиқариш жараёнларида атроф-муҳитга чиқинди сифатида жуда кўплаб захарали моддалар чиқарилади ва зарарли таъсир ўтказилади. Уларнинг таъсирида ўсимликлардаги биологик ва физиологик жараёнларнинг мароми бузилади, оқибатда ўсимликларнинг яшашга чидамлилиги сусайиб қуриб қолади. Дарахтсимон ўсимликлар учун айниқса сулфат ангидриди, хлор, водород фторид, углерод бирикмалари, турли чанг ва қурумлар зиён етказади. Ҳавода бундай моддаларнинг меъёридан кўп бўлиши

барглардаги нафас олиш аппаратини тиқилиб қолишига, газ алмашиниш, иссиқлик ва ёруғлик ютилиш жараёнларини сусайишига олиб келади. Натижада биоммасса(тирик модда) синтези секинлашади. Ахоли сониниг ортиб бориши натижасида ўрмонларнинг кесилиши ва ерланиниг ўзлаштирилиш натижасида ўсимлик яшаш жойлари қисариб бормоқда [ П.С.Султонов 185].

Дунё миқёсида хозирги вақтда глабал иқлим ўзгариши оқибатида бутун биосферадаги экосистема таркиб ўзгариб бормоқда. Ҳароратни ва ёғинларни янги тартибда ўзгаришига мослашиш туфайли эволюцион ўзгаришларни вужудга келтирмоқдаки бу янги янги ўсимликларни шалланишига сабаб бўлмоқда. Бизга маълумки, кейинги юз йилликда ўртача ҳовонинг ҳарорати охирги 10 000 йилликка нисбатан тезкорлик билан ошиб боради. Бугунги кунда иқлим ўзгаришлари сайёрамизнинг биохил-махиллигига катта хавф туғдирмоқда. Иқлим ўзгаришнинг прогнозларига биноан биологик хилма-хилликни сақлаш муаммоси доим ўсиб боради [ Д.Ёдгорова 69].

Йўқолиб кетиш арфасида турган ўсимлик турларини, генофондини сақлаш, уларни кўпайтириш, мухофаза қилишга оид турли хил тадбирлар олиб бориш, камёб ўсимлик турларини кўпайтириш учун питомникларни кўпайтириш мақсадга мувофиқ бўларди. Инсониятнинг ўз манфатини ўйлаб табиатдан нооқилона фойдаланиб келиши натижасида ер юзида турли хил экологик муаммолар юзага келамоқда. 1992 йил дунё олимлари биринчи бор инсонятни огохлантириш берганн бўлса, яқин кунларда яна иккинчи бор инсонятга огохлантириш хати юборишди, хатга дунё олимларининг 15 мингдан ортиқ олимлар имзо чекишди, инсоният табиат реусурсларини асраб қолмаса ўзимиз хам шунинг домига кириб кетишимиз мумкин. Бунинг олидини олиш учун ахоли орасида экологик тушунчаларни шакллантириш биологик ресурсларни мухофаза қилиш, сақлаб қолиш чораларини кўрганимиздагина ўз инсоний бурчимизни бажарган бўламиз.

**Файдаланилган адабиётлар.**

1. П.С.Султонов «Экология ва атроф-мухитни мухофаза қилиш асослари» Тошкент 2007 й Б 185.

2. Д.Ёдгорова «Иқлим ўзгариши ва экологик мослашув» Ўқув-методик мажмуа. Тошкент 2011й Б 69

# THE PRINCIPLE OF UNIFORM DISTRIBUTION OF SEISMIC FORCES, WHICH CAN BE ACHIEVED THROUGH SYMMETRICAL AND UNIFORM DISTRIBUTION OF MASSES AND UNITS IN THE PLAN VIEW OF BUILDINGS

**Kamalov Bobur**

Civil-engineer in “Toshuyjoy LITI” JSC.

e-mail: bobur514@gmail.com

**Abstract**: In this article talks about the principles of uniform distribution of seismic forces, which can be achieved through symmetrical and uniform distribution of mass units in the plan view of buildings.

**Key words**: earthquake, seismic force, symmetrical force, bending moment, statically unsaturated system, horizontal force, vertical structures, monolithic frame.

The form (form) of the building should be as simple and elegant as possible. The results of the study of the consequences of the earthquake showed that buildings with a circular or square plan, a rectangle close to a square shape, that is, a rectangular building with the dimensions of the sides that do not differ much and without protruding parts, were the least damaged. Due to the fact that the walls and other structural elements of such buildings are equal or close to each other in different directions, such buildings are equally resistant to the impact of horizontal seismic force in all directions (Fig. 1).



*Figure 1. A building plan that ensures even distribution of seismic forces during an earthquake.*

If this condition is not fulfilled, i.e. local or one-sided gathering of masses is allowed, then the seismic forces will create dangerous torsional moments for the buildings. An example of this is the building plan in the picture below (Fig. 2).



*Figure 2. Symmetrical building plan that does not meet the requirement of earthquake resistance.*

If the internal walls of the buildings are longitudinal or transverse in plan, they should continue to the end. If the wall of the building is not continuous in plan, the separated (detached) wall can break it during an earthquake by striking (thrusting) the adjacent wall. As we have said above, if the building project is evenly distributed and symmetrically located in the plan of the building, regardless of the structure (frame frame) (monolithic or composite), the building will work synchronously during an earthquake. Observational results have confirmed that buildings with circular, regular polygonal, square (or similar) or rectangular shape in plan are less damaged during an earthquake compared to complex plan buildings. If it is not possible to make the buildings simple in plan according to the requirements of architecture or operation, in these cases, it is necessary to divide the buildings into square, rectangular and other simple-shaped parts by means of anti-seismic joints.

In buildings, anti-seismic joints are carried out by installing load-bearing double walls, in frame buildings by means of double frames. Anti-seismic seams separate buildings (except the foundation) into individual parts and it is done along the entire height. From an economic point of view, it is possible not to weld on the foundation.

The width of anti-seismic seams is selected depending on the height of the building. The width of the anti-seismic joints is selected in such a way that each part

can vibrate without hitting each other during an earthquake. The height is 5m. in buildings up to, the width of such seams should not be less than 3 cm. In buildings taller than that, the width of the seams is increased by 2 cm every 5 m. The width of the anti-seismic joints must not be smaller than the sum of possible horizontal displacements due to the vibration of both parts.

If we assume that the building is a cantilever fixed to the ground, it is known that the maximum value of the bending moment arising from the transverse shear force and horizontal forces occurs at the base level.

It is possible to reduce the values of the bending moment and transverse force at the top points of the building between the center of the base and the point of application of the equal force effector. The value of horizontal forces is proportional to the mass of structures, and it is possible to reduce the value of horizontal forces by reducing the specific weight of structures. In addition, the value of seismic forces can be achieved by increasing the elasticity of load-bearing vertical structures.

In order to achieve the value of seismic forces by reducing the specific weight of structures, the following conditions must be met:

a. reducing the specific weight of structures by using materials that can effectively use their strength and thermo technical properties as load-bearing structures;

b. moving technological processes using heavy machines and mechanisms to the lower floors (if possible, to the first floor), placing warehouses and other similar rooms on the first floor (Fig. 3).




*Figure 3. Reducing the seismic impact by placing the main technological processes and warehouses in the buildings on the first lower floor.*

c. replacement of bridge-type cranes, which are placed on beams under the crane in columns in a one-story building, with a crane designed to walk on rails on the floor (Fig. 4);



*Figure 4. Reducing seismic impact by replacing overhead cranes with floor cranes.*

In frame-frame buildings, the frame itself is a spatially invariant system, and evenly distributed steps and frames characterize them with uniform uniformity.

Frame structures are often statically uncertain systems. Therefore, the local damage caused by the formation of plastic hinges in individual elements does not lead to the damage of the whole system. This is the reason for the high load-bearing capacity of this type of construction.

**References:**

1. Rahmonov B., Siddiqov M. Binolar zilzilabardoshliligi. Tashkent 2007.
2. Fakhriddinov V.A., Kondrat'ev A.T., Kuldashev U.F. Razvitie sistem aktivnoi seismozashity zdany i sooruzheny // Zhilishnoe stroitelstvo. 2009. № 8. S. 36–39.

# ODDIY BO‘YMADARON (ACHILLEA MILLEFOLIUM *L.*) O‘SIMLIGINING O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UNUVCHANLIGI

**Narinova Saodat Baxtiyor qizi**
Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistri

**Kirish:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son qarorida keltirilgan ―Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari‖ to‘g‘risidagi qarorda belgilab qo‘yilgan o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda madaniy holda yirik plantatsiyalarini barpo qilish xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qarorida ―Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlari‖ to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ishlarni amalga oshirish. [1]

Hozirgi vaqtda o‘simlik turlarining yo‘qolishi kutilayotgan tabiiy yo‘q bo‘lish darajasidan 100 dan 1000 baravargacha yuqori va Yer har 2 yilda kamida bitta potentsial asosiy o‘simlikni yo‘qotmoqda . Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi va Butunjahon yovvoyi tabiat fondi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda dorivor maqsadlarda ishlatiladigan 50 dan 80 minggacha gulli o‘simlik turlari mavjud. Bular orasida 15000 ga yaqin turlar haddan ziyod yig‘ilishi va yashash muhitini noqulayligi bilan yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turibdi va ularning yovvoyi boyliklarining 20% allaqachon odamlar sonining ko‘payishi va o‘simliklarni iste’mol qilish bilan deyarli tugagan. Ushbu tahdid bir necha o‘n yillar davomida ma’lum bo‘lsada, butun dunyo bo‘ylab turlarning tez yo‘qolishi va yashash joylarining yo‘q qilinishi dorivor o‘simliklarning yo‘q bo‘lib ketish xavfini oshirdi, ayniqsa Xitoy ,Hindiston, Keniya, Nepal, Tanzaniya va Uganda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan.. O‘simlik turlarining o‘ndan biridan ko‘prog‘i giyohvand moddalar va sog‘liqni saqlash

mahsulotlarida ishlatiladi, ulardan 50 mingdan ortiq turlari qo‘llaniladi. Biroq, dorivor o‘simliklarning tarqalishi dunyo bo‘ylab bir xil emas. Masalan, Xitoy va Hindiston eng ko‘p ishlatiladigan dorivor o‘simliklarga ega bo‘lib, navbati bilan 11146 va 7500 tur, undan keyin Kolumbiya, Janubiy Afrika, AQSh va yana 16 mamlakat Malayziyada 7% dan dorivor o‘simliklarning foizlari bilan. o‘simlik turlari, ularning umumiy raqamlar nisbatan Hindistonda 44%. Ba’zi o‘simlik oilalarida nafaqat dorivor o‘simliklarning soni ko‘proq, balki tahdid ostida bo‘lgan turlarning nisbati boshqalarga qaraganda ko‘proq.

**Maqsad:** Oddiy bo‘ymadaron o’simligini yetishtirishda unuvchanligini ishlab chiqish, o‘simlikning biologiyasini o‘rganish asosida ko‘paytirish texnalogiyasini ilmiy asoslash. Oddiy bo‘ymadaron o’simligini ko’paytirishning samarali usullari hamda tavsiyanomalar ishlab chiqiladi, hamda mahsulot sifatiga baho beriladi, farmatsevtika sanoatiga tatbiq etiladi.

**Usul va uslublar:** Oddiy bo‘ymadaron maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 4-5 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi.

**Natijalar:** Respublikamizda Oddiy bo‘ymadaron o’simliklarini Markaziy Osiyo iqlim sharoitiga moslashtirish, yangi navlarni yetishtirish, ularni qayta ishlash yuzasidan muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Oddiy bo‘ymadaron o‘simligining maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 4-5 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi. O‘simliklami bo‘yi 12-15 sm ga yetganida esa qator oralarini ishlash bilan birga ularning rivojlanishini tezlashtirish maqsadida gektar hisobiga 30 kg dan azot va 15 kg dan kaliy o‘g‘iti berilib, 4-8 sm chuqurlikda kultivatsiya ishlari o‘tkazildi. Ikkinchi oziqlantirish o‘simlikning bo‘yi 20-30 sm ga yetganda gektariga 25 kg dan azotli va fosforli o‘g‘itlar bilan oziqlantirildi. O‘simlikni oziqlantirish albatta sug‘orishdan oldin amalga oshirildi. O‘simlik oziqlantirilgandan va sug‘orilgandan keyin uning o‘sishi va rivojlanishi tezlashdi. Oxirgi oziqlantirishni uning bo‘yi 40-45 sm ga yetganda azotli va kaliyli o‘g‘itlar berish bilan tugallandi. Mavsum davomida oddiy bo‘ymadaronni 8-9 marta sug‘oriladi va gektariga 75-90 kg azot, 60 kg fosfor, 35 kg kaliy va yer haydash

oldidan 25 tonna go‘ng bilan oziqlantirildi. lyul oyigacha oddiy bo‘ymadaron o‘simligini 2-3 marta o‘rib olindi. Bu esa iyul oyining oxiriga kelib ildiz tizimidan yangi o‘t o‘sib chiqishini ta’minlaydi.

**Xulosa:** Mazkur malumotlardan kelib chiqib Oddiy bo‘ymadaron o‘simligining O’zbekiston sharoitida yetishtirish, madaniy holda o’stirish va ko’paytirish maqsadida oddiy bo‘ymadaron dorivor o’simligini yetishtirish ko‘p mehnat talab etmaydigan yetishtirish qulay hamda hamma organlaridan ham foydalansa bo‘ladigan o‘simliklar qatoriga kiritsak respubikamizda yetishtirishni kengaytirish mumkin.

**ADABIYOTLAR:**

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining2020yil 10-apreldagi ―Yovvoyi holda o’suvchi dorivor o’simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to’g’risida‖gi PQ4670 -son karori.

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent: Xalq merosi. 1993.3-jild. 311B

3. “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.Ataboeva H. N. va boshqalar. Toshkent, 1995. O’simlikshunoslik.

# QORAQALPOQ SHOIRI BERDAQ MEHNATKASH XALQ KUYCHISI

**Mamatov Jasurbek Luqmon o‘g‘li**
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi

**Annotatsiya:** maqolda ulug‘ shoir ozodlik kuychisi Berdaq asarlaridagi xalqning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, ularning ozodlik uchun kurashga da’vat etuvchi she’r va dostonlar tahlil etilgan. Shoir o‘z asarlarida zahmatkash xalqning mustamlakachilarga qarshi kurashi, Vatanni himoya qilish g‘oyalarini ilgari suradi.

**Kalit so‘zlar:** mehnatkash xalq, vatanparvarlik, ma’naviyat, axloq, adolat, tenglik, insonparvarlik.

**Аннотация:** в статье анализируется общественно-политическое положение народа в творчестве великого поэта-певца свободы Бердака, его стихах и былинах, призывающих к борьбе за свободу. В своих произведениях поэт выдвигает идеи борьбы трудящихся против колонизаторов и защиты Родины.

**Ключевые слова:** трудолюбивый народ, патриотизм, духовность, нравственность, справедливость, равенство, гуманизм.

**Abstract:** the article analyzes the socio-political situation of the people in the works of the great poet freedom singer Berdak, his poems and epics calling for the struggle for freedom. In his works, the poet puts forward the ideas of the struggle of the working people against the colonialists and the protection of the Motherland.

**Key words:** hardworking people, patriotism, spirituality, morality, justice, equality, humanitarianism.

O‘z davrining ma’lum va mashhur adiblaridan biri bo‘lgan Berdaq o‘zining noyob ijodi bilan boshqa adiblardan tubdan ajralib turadi. Adib Qoraqalpoq xalqi orasida Xalq kuychisi nomi bilan o‘z o‘rnini topa olgan. Berdaq asarlarini farqli tomoni shundaki,

adib o‘z asarlarida xalq orasidagi tashvishlarni tasvirlay olgan va xalqni muammosini o‘zini muammosidek his qila bilgan. Asosan, ko‘chmanchilik asosida chorvachilik bilan shug‘ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrli hayotining jabru-stamlarni boshidan kechirdi. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan joylarda istiqomat qilgan. O‘sha davrda Qoraqalpoq xalqi o‘zining xususiy yer va mulkiga ega bo‘lmagan. Shuning uchun ularning adabiyoti, tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘shiq va dostonlardan iboratdir.

Ular o‘zlarining buyuk tarixiga ega bo‘lgan o‘tmishlarini doton-u qo‘shiqlarda aks ettirishgan. Qolaversa, o‘zbek adabiyotining O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida mashhur bo‘lgan dostonlari ham qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan. Adabiyotimizdagi dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik talqinlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Masalan, Berdaqning quydagi she’rida vatanparvarlik, vatanni dushmanlardan himoya qilish, yigitlarni vatan ozodligi uchun kurashga otlanishga da’vat etilgan:

Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun.
Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
O‘zim demay, g‘amxo‘rlik qil xalq uchun.[13]

Berdaq asarlari o‘z zamonida, balki o‘zidan keyingi zamonlar uchun ham dolzarbligi, ahamiyatliligi, kerakligi, elning dardini o‘zida jo qila olishi bilan ajralib turadi. Masalan, xalq uchun she’rida Berdaq butun xalqqa murojat qiladi. Xalqni, barcha yosh-u qarini el uchun xizmatga, xalqparvarlikka chorlaydi.

Berdimurod, o‘ylab aytgil so‘zingni,
Ko‘tarma, lof urib, faqat o‘zingni.
Qizartmagay birov sening yuzingni,
Qo‘ldan kelsa, xizmat ayla xalq uchun.

Berdaq jamiyatdagi adalotsizlik, tengsizlikni asarlarida ko‘rsatar ekan, yorug‘lik ozod turmush istagi uchun kurashni sinfiy kurash darajasida aks ettirgani yo‘q. Berdaq

[13] https://teletype.in/@yosh_kitobxon_kitoblari_bot/IExCkbAtA

dostonlariga jiddiyroq nazar tashlasangiz, aslida bunday emasligining guvohi bo‘lasiz. Chor Rossiyasi davridagi real hayotdan uzoq bo‘lgan mustamlakachi tizimni ulug‘lab chiqqan yozuvchi va shoirlardan farqli ravishda Berdaq o‘z asarlarida xalqning og‘ir hayoti, ularning zulmga uchragan hayotini haqqoniy ravishda yoritib bergan.

Etarsan murodga, gar xizmat etsang,
Eling yo‘llaganda har qayon ketsang.
Har qachon dushmanning boshiga yetsang,
Kuch ayamay, xizmat ayla xalq uchun.

Xozir ma’rifat va ma’naviyat masalalariga katta e’tibor berilayotgan bir paytda buyuk Berdaqni barchamiz yana bir bor alohida ehtirom bilan yodga olishimiz kerak. Qoraqalpoq xalqining buyuk ma’rifatparvari olg‘a surgan ilm chirog‘i, axloq, madaniyat, odob, vijdon, iymon, adolat haqidagi g‘oyalari jamiyatimiz va zamondoshlarimizning bugungi ravnaqiga munosib ta’sir ko‘rsata oladi. Berdaq ham aynan mana shu xalqining obro‘-e’tibori, manfaati uchun yonib kuygan ijodkor hisoblanadi. Aynan mana shu she’rda Berdaq xalq ichidagi dard-anduxlarni to‘liq ifodalay oldi. Berdaq hayotlik chog‘idayoq xalqning dili va tili darajasiga ko‘tarila olgan edi. “Mening so‘zim – xalqning so‘zi” deydi u asarlarida, mag‘rur ohangda.

Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir («Bo‘lgan emas», «Soliq», «Bu yil», «Umrim» va b.). Shoir hqaqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi («Xalq uchun», «Menga kerak» va b.). Tarixni mavzudagi «Avlodlar», «Omongeldi», «Azadosbiy», «Ernazarbiy» asarlarida shoir xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning «Avlodlar» asari tarixiy voqealar solnomasi bo‘lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fiqolari bayon qilinadi. Berdaq ba’zi ta’magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi («Yaxshiroq», «Shekilli» va b.), ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi («O‘g‘limga», «Ahmoq bo‘lma» va b.) She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida boshqa mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Berdaq xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘raydi («Yordam ber»), baxt haqida fikr yuritadi

(«Izladim»), odil podshoni orzu qiladi (Kerak), baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq ogʻzaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining gʻoyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning koʻpgina asarlari oʻzbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. Xulosa qilib aytganda, Berdaq oʻz asarlarida xalqning ogʻir hayoti, mehnatkash xalqning turli xil jabr-zulmga uchrashi va xalqning koʻchmanchi hayotini haqqoniy ravishda tasvirlab bera olgan kam sonli shoirlardan biri edi. Adib ijodini oʻrganar ekanmiz koʻplab qiziqarli badiy obrizlarga duch kelar ekanmiz insonning ichki kechinmalarini hamda tashqi shakil shamoilidagi barcha xislatlarni mahorat bilan ochib bergan ijodkorlardan dek mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Qoraqalpoq xalqining boy tarixiy merosini oʻzida mujassam etgan asarlari Qoraqalpoq xalqining adabiyotida oʻchmas iz qoldirgan Berdaq oʻz asarlari orqali xalqni ozodlik uchun kurashga chorlagan, vatanining xalqining kelajagini oʻylagan shoir sifatida Qoraqalpoq xalqi xotirasida mangu qoluvchi haqiqatni oʻzining she’riyatida va dostonlarida mujassam etgan adib xisoblanadi. Shu oʻrinda davlatimiz rahbari soʻzlari bilan yakunlashlikni lozim deb bildik: “Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini oʻqituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari boʻlgan bu moʻʻtabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom koʻrsatishimiz kerak” Sh.Mirziyoyev.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat ─ yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat,2008.
2. Tanlangan asarlar /Qoraqalpoqchadan Mirtemir va Muzaffar Ahmad tarjimasi. – Nukus: «Ilim», 2018. – 212
3. Tanlangan asarlar, Nukus. 1956; Tanlangan she’rlar, T., 1958; She’rlar, T.: 1976.
4. https://teletype.in/@yosh_kitobxon_kitoblari_bot/IExCkbAtA
5. www.ziyo.uz

# TABLE OF CONTENTS


| Sr. No. Paper/ Author |
|---|
| 1 |
| **SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI**<br>Qodirova Nilufar Abdusattor qizi<br>**Page No.: 3-6** |
| 2 |
| **CHINGIZ AYTMATOVNING "SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR" ASARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QO'LLANILISHI**<br>Sattarova Dildora Sunnatullo qizi<br>**Page No.: 7-10** |
| 3 |
| **ГУГУРТЛИ-УЧҚИР КЎТАРИЛМАСИНИНГ ЛИТОЛОГО-СТРАТИГРАФИК ТУЗИЛИШИ**<br>Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич<br>**Page No.: 11-15** |
| 4 |
| **NOSTOC PUNCTIFORME VA SPIRULINA SUVO'TLARIDAN LEKTIN MODDASINI AJRATIB OLISH**<br>Aliyeva D. X., Tashmuhamedova Sh. S., Tursunova S.Z.<br>**Page No.: 16-21** |
| 5 |
| **YANGI O'ZBEKISTON**<br>Bozarova Rayhona Elyorbek qizi<br>**Page No.: 22-25** |
| 6 |
| **AHOLINING O'SISHI VA UNING OQIBATLARI**<br>Murodova Saodat Meliyevna<br>**Page No.: 26-28** |
| 7 |
| **JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDAGI BIOLOG OLIMLAR VA ULARNING ILMIY FAOLIYATI**<br>Murodova Saodat Meliyevna<br>**Page No.: 29-33** |

| 8 |
|---|
| **ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ**<br>Уктамова Маликахон Шералиевна<br>**Page No.: 34-39** |
| **9** |
| **COGNITIVE INTERPRETATION OF METAPHOR IN THE LITERARY TEXT**<br>Kurbonova Guzal Khujamurodovna<br>**Page No.: 40-43** |
| **10** |
| **МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШДА КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ЙЎЛЛАРИ**<br>Вафоева Манзура Рейимбергеновна<br>**Page No.: 44-47** |
| **11** |
| **ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ**<br>Жураева Дильдорабону Дилшодбековна<br>**Page No.: 48-52** |
| **12** |
| **РОЛЬ ПЕДАГОГА В ПОВЫШЕНИИ УСПЕШНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ**<br>Дурдона Ахмедова<br>**Page No.: 53-57** |
| **13** |
| **1-4-SINFLARDA INGLIZ VA O‘ZBEK TILI TOVUSHLARINI QIYOSIY O‘RGATISH MASHQLARI**<br>Mirzayeva Dilfuza,<br>Ubaydullayeva Manzura<br>**Page No.: 58-61** |
| **14** |
| **FITOLAMPALARNING O‘SIMLIKLAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI.**<br>Abrahmatova Asliya A’zamatovna,<br>Zokirov Xaydarmuxammad Asqar o‘g‘li<br>**Page No.: 62-64** |

| 15 |
|---|
| **BERDAQNING HAYOTI VA IJOD YO‘LINI O‘RGANISHNING IBRATLI TARAFLARI**<br>Turobova Mohichehra Xolbek qizi<br>**Page No.: 65-70** |
| **16** |
| **AMARANT (AMARAMTHUS) O‘SIMLIGINING AGROTEXNOLOGIYASI**<br>Eryigitova Sitora Sobir qizi<br>**Page No.: 71-73** |
| **17** |
| **THE LEVELS OF FORMALITY IN BUSINESS COMMUNICATION DISCOURSE**<br>Mashkhura Tursunova<br>**Page No.: 74-76** |
| **18** |
| **QAZI MAWLIK SHIǴARMALARINDA SINONIMLERDIŃ QOLLANILIWI**<br>Karamatdinova Gawhar Tair qızı<br>**Page No.: 77-82** |
| **19** |
| **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЖИГАНИЯ ТОПЛИВА В ПАРОВЫХ КОТЛАХ**<br>Курбонова Наргиза Махкамовна,<br>Муродов Лазизбек Лочин угли<br>**Page No.: 83-85** |
| **20** |
| **СОЛИҚ СОЛИШ МАҚСАДИДА КЎЧМАС МУЛКЛАРНИ БАҲОЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ**<br>Вафоева Манзура Рейимбергеновна<br>**Page No.: 86-89** |
| **21** |
| **BIOLOGIYANI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**<br>Doniyorova Shaxnoza Olimjon qizi,<br>Ismoilova Nilufar Shamsiddin qizi<br>**Page No.: 90-92** |

| 22 |
|---|
| **O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA MATN YARATISH METODINING O‘RNI**<br>Doniyorova Mohinur<br>**Page No.: 93-96** |
| **23** |
| **QORAQALPOQ ADABIYOTI NAMOYONDASI BERDAQ IJODIYOTINI O‘RGANISHNING MOHIYATI**<br>Norqo‘ziyeva Fotima<br>**Page No.:97-102** |
| **24** |
| **IDROKNING TURLI XIL BUZULISH SHAKLLARI**<br>O‘rolova Nigora Rustam qizi<br>**Page No.: 103-106** |
| **25** |
| **POMIDOR KUYASI BIOLOGIYASI, TARQALISHI, ZARARI VA QARSHI KURASH USULLARI**<br>Imomaliyev Erali Nurali o‘g‘li, O‘rishaliyeva Nazokatoy Ikromjon qizi<br>**Page No.: 107-110** |
| **26** |
| **PSIXOLOGIYANING IJTIMOIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI**<br>Temirov O‘tkir Sodiq o‘g‘li<br>**Page No.: 111-113** |
| **27** |
| **МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИ ТАРКИБИДА КЎЧМАС МУЛКДАН ОЛИНАДИГАН МАҲАЛЛИЙ СОЛИҚЛАР**<br>Вафоева Манзура Рейимбергеновна<br>**Page No.: 114-117** |
| **28** |
| **INVESTMENT ATTRACTION THROUGH SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT OF WAYS IN NAMANGAN REGION ON THE SUBJECT OF THESIS**<br>Abdumutalliyev Abdulaxad Abdusamad o‘g‘li<br>**Page No.: 118-120** |
| **29** |
| **QASHSHOQLIKNING GLABAL O‘ZGARISH TRENDI**<br>Ilhomjonov Jahongir Alisher o‘g‘li<br>**Page No.: 121-126** |

| 30 |
|---|
| **TALABA YOSHLARNING ILMIY VA MA’NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA BERDAQ IJODINING AHAMIYATI**<br>Xoliqova Gullola Yoqub qizi<br>**Page No.: 127-131** |
| **31** |
| **TURLI XIL TUPROQ ZONALARIDA TOKZORNI O‘G‘ITLASH**<br>Yursunova Shahnoza Erkinjon qizi<br>**Page No.: 132-135** |
| **32** |
| **ШАРҚ МЕВАХЎРИ (GRAPHOLITHA MOLESTA BUSCK.) БИОЛОГИЯСИ ВА ҚАРШИ КАРАНТИН ТАДБИРЛАР**<br>Н.Мирабдуллаева, Ф.Узоқов<br>**Page No.: 136-138** |
| **33** |
| **АДАБИЙ-БАДИИЙ ТАФАККУРДАГИ ОБРАЗ ВА ОБРАЗЛИЛИК ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР**<br>Толипова Аида Муратовна<br>**Page No.: 139-142** |
| **34** |
| **МЕВАЛИ БОҒЛАРДА УЧРАЙДИГАН ЭНТОМОФАГЛАРНИНГ ДОМИНАНТ ТУРЛАРИНИНГ СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ**<br>Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна,<br>Шоимова.Д., М.Шарипова<br>**Page No.: 143-146** |
| **35** |
| **YOSHLAR O‘RTASIDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATI XUSUSIYATLARI**<br>Norboyeva Mohigul Shavkat qizi<br>**Page No.: 147-150** |
| **36** |
| **ИНСОНИЯТНИНГ ЎСИМЛИК ДУНЁСИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ**<br>Қувондиқов Шохзод Бегали ўғли<br>**Page No.: 151-154** |

| 37 |
|---|
| **THE PRINCIPLE OF UNIFORM DISTRIBUTION OF SEISMIC FORCES, WHICH CAN BE ACHIEVED THROUGH SYMMETRICAL AND UNIFORM DISTRIBUTION OF MASSES AND UNITS IN THE PLAN VIEW OF BUILDINGS**<br>Kamalov Bobur<br>**Page No.: 155-158** |
| **38** |
| **ODDIY BO‘YMADARON (ACHILLEA MILLEFOLIUM *L.*) O‘SIMLIGINING O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UNUVCHANLIGI**<br>Narinova Saodat Baxtiyor qizi<br>**Page No.: 159-161** |
| **39** |
| **QORAQALPOQ SHOIRI BERDAQ MEHNATKASH XALQ KUYCHISI**<br>Mamatov Jasurbek Luqmon o‘g‘li<br>**Page No.: 162-165** |